

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” TA'LIM YO'NALISHI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF O'Q'UVCHILARIDA
VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**BAJARDI: XOLMATOVA AROFATXON ABDUG'OXXOR
QIZI**

RAHBAR: P.FN T.G'.SULEYMANOVA

ANDIJON 2013

MUNDARIJA

Kirish 3-5 betlar

I-BOB“KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI IJTIMOIY PSIXOLOGIK , MADANIY HODISA SIFATIDA PSIXOLOGIYA FANLARI TIZIMIDADAGI O’RNI”

1.1 Boshlang’ich sinf o’quvchilarining yosh va ijtimoiy psixologik
Xususiyatlari.....

1.2 Kichik maktab yoshidagi bolaga do’stona munosabatlar ulardagi vatanparvarlik
qadriyatlarini shakllantirishning muxim ijtimoiy psixologik omili sifatidagi ahamiyati

1.3 Bola shaxsida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oila hamda oilaviy
an’analarning o’rni.....

II BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

2.1 O’rta osiyo allomalarining Vatanparvarlikning
o’ziga xos xususiyatlari xaqidagi qarashlar.....

2.2. Kichik maktab yoshidagi bolalarda e’tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini
shakllantirish –ijtimoiy psixologik omillari.....

2.3. Milliy o’z-o’zini anglash- kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik
qadriyatlarini shakllanishining murakkab majmui sifatida.....

III BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA O’QITUVCHI SHAXSI VA PEDAGOGIK MAXORATINING AXAMIYATI

3.1 Kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda
o’qituvchi shaxsiga talablar.....

3.2 Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jixatdan o’rganilishi

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Ilova.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Vatanparvarlik, insonparvarlik va baynalminal tarbiyaning mamlakatimiz istiqboli, uning yahlidligi, dunyo hamjamiyatidagi obru-e'tiborining ortishi, mamlakat fuqarolari o'rtasidagi yakdillik, hamjixatlik kabi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi xamda barqaror bo'lishida o'rni benixoya kattadir. SHunday ekan tarbiyaning bu turlariga panja orasidan qarab bo'lmaydi, ya'ni bu tarbiya turlarini bolaning ilk yoshlaridan boshlab singdira borish zarur O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «O'zbekiston - muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg'otish - bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi. Darhaqiqat, dunyoda shunday bir buyuk so'z borki, u inson yuragidagi ilohiy nur kabi doim yolqinlanib turadi, nur tarab tanga quvvat, ruhga rohat, odam hayotiga bir umr farog'at bag'ishlaydi. Bu laziz va aziz "Vatan" so'zidir, u mo'tabar "Ona" so'zi bilan yonma-yon tug'iladi.

Dunyoda ona bitta, Vatan bitta bo'ladi, bu tushuncha hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. ... Vatanni eng suyuqli zot ta'rifi bilan ifoda etib "Ona-Vatan" deymiz»(Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996.)

Vatanparvarlik – bu muayyan millatga mansublik va bu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan millatga sadoqatli bo'lish hissini tuyish va bu yo'lda amaliy faoliyat ko'rsatishdan iboratdir

O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunining “Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati” deb nomlangan 4-moddasida bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'alarini, ma'naviy qadriyatlarini, hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish; vazifalari alohida belgilanib berilgan:

Vatanga muhabbat, vatanparvarlik qadriyatlari har bir kishida jamiyatda uni o'rab olgan ijtimoiy madaniy muhit ta'sirida, jamiyatning ta'lim va tarbiya asosida shakllanadi .

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'zbekiston pedagoglari va psixologlari S.Annamuratova, R.Ahliddinov, S.Bulatov, A.Jabborov, Zunnunov, Inomova, H.Yo'ldoshev, V.Karimova, U.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Nosirov, N.Ortiqov, M.Ochilov, E.Seitxalilov, G'.SHoumarov, T.Qurbonov, M.Quronov, Z Nishonova,SH.Qurbonov, E.G'oziev, O.Hasanboevalarning tadqiqotlarida sog'lom e'tiqod shakllanishi uchun muhim bo'lgan estetik, axloqiy, milliy-ma'naviy, psixologik masalalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayoning ijtimoiy psixologik omillari.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoning ijtimoiy psixologik omillari aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari: kichik maktab yoshi davri psixologiyasiga oid kontsepsiyalari tashkil etadi

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: Suxbat, test anketa so'rovnomasi adabiyotlarni taxlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- Bitiruv malakaviy ishning vatanparvarlik qadriyatlarini kichik maktab yoshi bolaning ruhiy rivojlanish va shakllanish tizimidagi o'rni, barkamol avlod tarbiyasi vazifalriga bog'liklik o'rganilgan.

- Bitiruv malakaviy ish ishida kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanish omilari va psixologik xususiyatlari yoritib berilgan- vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi ijtimoiy psixologik hodisa ekanligi oydinlashtirilgan;

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda vatnparlik qadriyatlarini shakllanishi usul va vositalari ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan;

- vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi va amal qilishi oila maxalla va ta'lim tizimi xamkorligi zaruriy xodisa ekanligi nazariy va amaliy jixatdan aniqlandi;

- vatanparvarlik va insonparvarlikning bola shaxsi tarbiyasida bir-birlarini taqozo qiluvchi psixologik xususiyatlari ko'rsatildi;

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalaridan umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi kichik maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan o'quv va tarbiyaviy jarayonlarida foydalanish mumkin.

Tatbiq etish darajasi : tadqiqot natijalaridan “Taraqqiyot psixologiyasi”, “pedagogik psixologiya”, “Etika”, “Milliy psixologiya”, “Ma’naviyat asoslari” kabi fanlardagi maruza va amaliy mashg’ulotlarda foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish ishining ushbu maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

Bitiruv malakaviy ish vazifalari :

- Psixologiya fanida kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish muammosi bo’yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o’rganish;

-Vatanparvarlikning o’ziga xos psixologik xususiyatlari va mangb’alarini oydinlashtirish;

-Vatanparvarlik qadriyatlarini kichik maktab yoshi o’quvchisi shaxsini shakllanishidagi rolini ko’rsatish;

-Vatanparvarlikning qadriyatlari jamiyat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini asosiy jihatlaridan biri ekanligini aniqlash;

-Kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish shakl va vositalarini yoritish;

- Milliy urf-odatlar, an’analar, madaniy merosi kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda muxim o’rin tutishi ekanligini ko’rsatish;

- oilada pedagogik madaniyatni shakllantirish kichik maktab yoshidagi o’quvchilar vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish ishlaridagi mazmun va mohiyatini yoritib berish

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi va amal qilishi xar bir bolaning ijtimoiy , yosh va individual xususiyalaridan kelib chiqqan xolda tashkil etilishi bolaning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti asoslaridan biri bo’lib xizmat qiladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

- Kichik maktab yoshidagi bolalarda e’tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega ekanligi;

-Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida bolalarning yosh va individual xususiyatlari o’rganish muxim ahamiyat kasb etishi

- Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi bolaning o’z o’zini anglash va o’z o’ziga baxo berish jarayon bilan o’zaro bog’liq ekanligi

- Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida o’qituvchi shaxsi ulkan ahamiyat kasb etishi

- Oila pedagogik nazokat va madaniyat kichik maktab o'quvchisining vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishining muxim bo'g'ini sifatida
- Maxalla yosh avlod tarbiyasida vatanparlik qadriyatlarini shakllanishida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning muxim bo'g'ini sifatidagi o'rnin yoritib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining joriy qilinganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ish ishining natijalaridan 2012-2013 o'quv yili mobaynida Oltinko'l tumani maktabning bishlang'ich sinf ta'lim tarbiya ishlarida foydalanib kelinmoqda shuningdek yosh psixologiyasi, tarqqiyot psixologiyasi , pedagogik psixologiya fanlarini o'qtishda nazaraiy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish tavqsiya etiladi

Bitiruv malakaviy ishning natijalari aprobatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish natijalari Andijon davalt universiteti psixologiya kafedrasi 2013 yil 19 aprelda ximoyadan o'tgan

Bitiruv malakaviy ish tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ish kirish, tuqqiz paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi86 , tashkil etadi.

**I-BOB “KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA
VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI
IJTIMOIY PSIXOLOGIK , MADANIY HODISA SIFATIDA PSIXOLOGIYA
FANLARI TIZIMIDADAGI O’RNI”**

**1.1 BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING YOSH VA IJTIMOIY
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha bo’lgan bolalar bo’lib ular boshlang’ich sinf o’quvchilari hisoblanadi. Bu davrlarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o’zgarishlar yuz beradi. Bu davrda bolaning qiziqishlari o’yin faoliyatidan o’quv faoliyatiga asta-sekin ko’chib o’tadi. O’qishga xos qiziqishlar ko’pincha bolalarning o’yin faoliyatiga ta’sir etadi, o’qishga xos qiziqishlar ko’pincha o’yinlar xarakteri va mazmuniga ta’sir qiladi. Har qanday ishining muvaffaqiyati ko’p jihatdan motivlarga bog’liq bo’lib, odam ana shu motivlar yordamida ish bilan shug’ullanadi. O’qish motivlari har xil bo’ladi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar o’zlarini bo’lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashlarida motivlarga kamroq amal qiladilar. Bola hali motiv haqida o’ylab ko’rishdan ancha uzoqda. Kichik maktab yoshidagi bola o’z bilim doirasini kengaytirish, foydali bilimlar olish, shuningdek, jamiyat oldidagi o’z burchini bajarish haqida ham uncha bosh qotirmaydi. Barcha mana shu motivlar unda ikkinchi darajali narsaga aylanadi. Ammo, yuqorida aytib o’tganidek, uning o’zi nima qilayotgan va maktabda bilib olayotgan narsaga bevosita qiziqishi, shuningdek, o’qituvchi, ota-onalar talablarini bajarishga intilishi, maqtov eshitishi, qilgan ishining ma’qul topilishi, yaxshi baholar olishi va hokozolar o’qishga nisbatan qiziqish uyg’otishning eng muhim vositalariga aylanib qoladi kichik maktab yoshidagi o’quvchilar faoliyatini baholash va unda o’qishga ijobiy munosabatni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. 7 yashar bo’lgan bolalardagi maktabga, o’qishga bo’lgan bu xildagi dastlabki qiziqish – havaslar, asosan ulardagi ixtiyorsiz diqqat protsessida ro’y beradigan bevosita qiziqish – havaslardir.

Kichik yoshdagi o’quvchilarda keyinroq borib o’z diqqat – e’tiborini muayyan bir narsaga, voqelik va hayotning ma’lum bir sohasiga, ma’lum bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadigan bevosita qiziqishlar sekin- asta yuzaga kela boshlaydi.

Dars jarayonida va darsdan tashqi mashg’ulotlarda o’quvchilar tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarni kengroq tushunib boradilar. Har xil narsalarga qiziqqa boshlaydilar, ularning

qiziqishlari borgan sari takomillashib, barqaror tus ola boradi. Endi maktab o'quvchilarini tevarak – atrofdagi ayrim hodisalargina emas, balki o'sha hodisalarning sodir bo'lish sabablari ham ko'proq qiziqitira boshlaydi. SHuning uchun ham bu davrda bola tomonidan beriladigan har xil “Nega bundayg’”, “Nimadan qilingang’”, “Bu nima uchun kerakg’” singari so'roqlar yanada ko'payib ketadi.

Bolada ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq narsalarni bilib olishga, yuqoriroq baholarga erishishga muayyan darajada ehtiyoj va zarurat paydo qilish kerak. SHundagina u o'zidagi buday talabni qondirishga harakat qiladi va aktiv faoliyat ko'rsatadi. Dars materiallarini bilib olishga, o'qituvchining topshiriqlarini yaxshilab bajarishga intiladi. Buning uchun esa bolani muayyan kun tartibiga odatlantirish va doimo dars tayyorlashga o'rgatish lozim. SHundagina u o'qishda muayyan daraja muvaffaqiyatlarga erisha oladigan bo'ladi va unda o'qishga havas uyg'onadi.

O'qishning dastlabki kunlarida bolalar sinfdagi dars mashg'ulotlariga juda ham qiziqadilar. Ularni ko'proq rasm chizish, yozish, doskaga chiqish, qo'l ko'tarib o'qituvchi savollariga javob berish singari ishlar qiziqtiradi. Keyinroq borib ular faqat darsdagi mashg'ulot jarayonining o'zigagina emas, balki mashg'ulotlarning mazmuniga ham qiziqqa boshlaydilar. SHu kezlari bola o'zining sinf va uyida bajarib kelgan ishlarini, yozma narsalarni o'qituvchiga tezroq ko'rsatishga oshiqadi. O'qituvchining o'quvchi bajargan vazifani og'zaki maqullashi ham uni g'oyatda quvontiradi.

Bolalarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan mohir o'qituvchilar e'tiborini ko'proq yozishga va berilgan topshiriqlarni tezroq bajarish lozim ekanligigagina emas, balki topshiriqlarni sifatli qilib bajarish, to'g'ri va chiroyli qilib yozish kerakligiga ham jalab etadilar hamda topshiriqlarni yaxshilab bajargan, to'g'ri va chiroyli yozgan o'quvchilarni o'z vaqtida rag'batlantirib boradilar. Natajada o'quvchilar sekin-asta dars mashg'ulotlarining mazmuniga qiziqadigan va ularni sifatli qilib bajarishga harakat qiladigan bo'lib qoladilar. O'quvchilar o'qituvchilarning “yaxshi yozibsan”, “to'g'ri bajaribsan”, “barakalla” singari og'zaki ma'qullashigagina emas, balki uning o'zlarining daftarlarga qo'yib beradigan baholariga ham qiziqqa boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda o'qishga qiziqishning ortib borishida ularning o'z bilim va tushunchalarning takomillashib borayotganligini sezib borishlar, o'z imkoniyatlarining o'sib borayotganligini tushunishlari katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto, o'quvchi dastlabki paytlarda “yaxshi” yoki “yomon” bahoning farqiga ham bormaydi, uni ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda III – IV sinflardan boshlab burch

hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi. Ammo bu yoshdagi burch hissi hali yetarli darajada barqaror va batamom mustaqil bo'lmaydi. Maktab ta'limi boshidan bola ikki tomonlama ham oilada, ham maktabda tarbiyaviy ta'sir ostida bo'ladi. SHu sababli tarbiyaviy ta'sirlarning, bir xil yo'nalishda bo'lishi komil shaxsni tarbiyalashga asos bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi bergan fikr va baholariga qarab, o'zlariga-o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'z-o'ziga beradigan bahosi, asosan to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha –yuqori, adekvatmos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishni belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelishi va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Bolalarda mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillika undash, unda ba'zi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan kimlargadir taqlid qilgan xolda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. SHuningdek shunday bir ijtimoiy psixik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari kattalar va boshqa odamlarning lideri deb xis qilsin, ana shu xis bolada mustahkam bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xilma – xil qiziqishlar bilan birga individual qiziqishlar ham tug'ila boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlik ishlariga ko'proq qiziqsalar, boshqalari musiqaga yoki she'riyatga muhabbat qo'yadilar. SHuningdek, ayrim o'quvchilar matematika yoki texnikaga qiziqsalar, ba'zilar ona tili yoki tibbiyotni yaxshi ko'radilar. Bulardan tashqari, ayrim o'quvchilarda har – xil kasblarga bo'lgan individual qiziqishlar ham ko'rina boshlaydi. Lekin bu yoshdagi o'quvchilarning orzu – havaslari hali tez – tez o'zgarib turadigan bo'ladi. SHuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi o'quvchilardagi ayrim narsalarga bo'lgan qiziqish umrbod saqlanib qolmog'i ham mumkin. Muayyan va doimiy qiziqish – havaslar o'quvchilarda asosan ayrim o'smirlik davrida tarkib topib borayotgan ideallar bilan bog'liq ravishda vujudga keladi va o'sadi. Kichik maktab yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poy-devori qo'yiladi, axloqiy normalar va xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi,

shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari I sinfdan IV sinfgacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar, tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ancha anglangan bo'ladi, turli-tumanlikka ega bo'ladi, umumiydashadi. I va II sinf o'quvchilarining axloqiy mulohazalari o'z hatti-harakatlari tajribasiga va o'qituvchilar hamda ota-onalarning konkret ko'rsatmalari va tushuntirishlariga asoslanadi (bunday ko'rsatmalarni bolalar ko'pincha mazmuni haqida hamma vaqt ham o'ylab o'tirmay, takrorlay beradilar). III—IV sinf o'quvchilari esa axloqiy mulohazalarida o'z xatti-harakatlari tajribasiga (bunday tajriba tabiiy ravishda boyib boradi) va kattalarning ko'rsatmalariga (bunday ko'rsatmalar endilikda ancha anglab idrok qilinadi) asoslanish bilan birga, boshqa kishilarning tajribalarini ham analiz qilishga intiladilar. Badiiy adabiyotlarni o'qish va bolalar uchun chiqarilgan kinofilmlarni ko'rish ancha katta ahamiyat kasb etadi. Axloqiy xatti-harakatlar ham xuddi shunday tarkib topadi. 7-8 yoshdagi bolalar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri kattalarning, jumladan o'qituvchining ko'rsatmalari bilan ijobiy axloqiy ishlarni amalga oshiradilar. III - IV sinf o'quvchilari tashqaridan bo'ladigan ko'rsatmani kutib o'tirmay, bunday ijobiy axloqiy ishlarning qanchadan-qanchasini o'z tashabbuslari bilan amalga oshiradilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda namoyon bo'ladigan xarakterologik xatti-harakatlarni hamma vaqt ham munosabatlar amalga oshiriladigan barqaror va mustaxkam hatti-harakat formalari deb bo'lavermaydi. Kichik maktab yoshidagi davrida xarakter endigina tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda xarakterologik xatti-harakatlar o'zining beqarorligi va qarama-qarshiligi bilan farq qilishi mumkin, SHu munosabat bilan ba'zan ulardagi o'tkinchi psixik holatlarni xato ravishda xarakter xislatiga qo'shib yuborish mumkin.emas aslo SHunngdek o'qituvchilar tomonidan .

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xatti-harakatlarida oliy nerv faoliyatining tipologik xususiyatlari chuqur o'rganilishi kerak. Bu xususiyatlar keyinchalik borib odatda hayotda tarkib topgan xatti-harakatlarning odatdagi shaqllari bilan qoplanadi (yoki psixologlarning aytishlariga ko'ra, niqoblanadi).

Uyatchanlik, tortinchoqlik nevr sistemasi kuchsizligining bevosita ko'rinishi bo'lishi mumkin, impulsivlik, o'zini bilmaslik tormozlanish protsessining kuchsizligi natijasida namoyon bo'lishi mumkin, reaksiyaning va bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatga ko'chishning sustligi — nerv protsesslariyaing kam harakatchanligi natijasida namoyon bo'lishim mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, bu hol tarbiyalash vazifasini xech bir soqit qilmaydi: I.P. Pavlovning ko'rsatishicha, nerv sistedasi g'oyat darajada plastik bo'lib, tashqi ta'sir natijasida ayrim o'zgarishlarga qobildir. Bundan tashqari, biz bila-mizki, tipologik xususiyatlarning namoyon bo'lishini ong tomonndan nazorat qilish imkoniyati bor. O'quvchilarni o'zlarida bunday xususiyatlarni nazorat qilishga o'rgatish zarurdir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi xarakteri o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Dastavval ular xarakterining impulsivligi (beixtiyorligini), ularning o'ylamasdan va barcha xolatlarni hisobga olmay, bevosita impulslar, mayllar va tasodifiy sabablar ta'siri ostida darhol harakat qilishga moyilliklarini ko'rsatib o'tamiz. Bu hodisaning sababi yosh munosabat bilan xatti-harakatlarni iroda orqali boshqarishning sustligi va aktiv tashqi vaziyatga bo'lgan ehtiyojdir. SHuning uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tomonidan maktabning ichki tartibini bo'zish hodisalarini intizomsizlik deb tushuntirib bo'lmaydi.

Irodaning umuman yetishmasligi ham yosh xususiyati hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi (xususan 7 — 8 yoshli bolalar) o'z oldiga qo'ygan maqsadni o'zoq muddat davomida ko'zlab borishni, qiyinchilik va to'siqlarni qat'iyatlik bilan yengishni hali bilmaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotib qo'yishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xarakteriga xos yosh xususiyatlariga mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik, to'g'rilik, ishonuvchanlik, kabi ijobiy xislatlar ham kiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biri — taqlidchanlikdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta yoshdagi kishilarga va ba'zi tengqurlariga, shuning bilan birga yaxshi ko'rgan kitoblari va kinofilmlardagi qahramonlarga taqlid qilishga intiladilar. Bu bir tomondan, shahsiy namuna orqali shaxsning ijtimoiy qimmatli hislatlarini tarbiyalash imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa, ayrim xavf ham sabab bo'lishi mumkin, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchi faqat ijobiy tomonlarnigina qabul qilmaydi. Agar katta yoshli o'quvchining chaqqonlik bilan voleybol o'ynayotgani birinchi sinf o'quvchisiga yoqib qolsa, uning hamma qiliqlarini shundayligicha ko'chirib oladi: katta yoshli o'quvchining lapang-lab yurishiga, qo'pol iboralariga, beso'naqay qiliqlariga taqlid qila beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar juda emotsionaldirlar. Bu emotsionallik shu narsada ko'rinadiki, birinchidan, kichik maktab yoshndagi bolalarning idroklari, ko'zatishtlari, hayollari, aqliy faoliyatlari odatda emotsional bo'yoqlarga boy bo'ladi. Ikkinchidan, kichik maktab yoshidagi bolalar (xususan, I va II sinf o'quvchilari) o'z hissiyotlarini tiyib tura olmaydilar, bu hissiyotlarning tashqi jihatdan namoyon bo'lishini nazorat qila olmaydilar. Bolalar o'z xursandchiliklarini, tashvishlarini, g'amginliklarini, qo'rquvlarini, qanoat hosil qilganliklarini yoki qanoatlanmaganliklarini samimiy ravishda va ochiqoydin izhor qiladilar. Uchinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining zo'r emotsional beqarorliklari, kayfiyatlarining tez-tez o'zgarib turishi, affekt holatiga moyilliklari, xursandlik-g'amginlik, g'azab va qo'rquvlarining qisqa muddatli va jo'shqin namoyon bo'lishi bilan ajralib turadilar. Yoshlari ulg'aygan sari ularda o'z hissiyotlarini boshkarish va bu hissiyotlarning yoqimsiz namoyon bo'lishiga aslo yo'l qo'ymaslik lozim

Kichik maktab yoshidagi davr xarakterning ijobiy xislatlarini tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga egadir. III sinf ta'limining boshlariga kelib tobora ortib borayotgan talablar ta'siri va to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya ishlarining ta'siri bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchida mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intizomlilik, hamda batartiblik tarkib topadi. Sekin-astalik bilan o'z xatti-harakatlarinn irodaviy tomondan boshqarish qobiliyati rivojlanadi. O'zini tuta bilish va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish hamda bevosita impulslarga berilmaslik malakasi yuzaga keladi. Qat'iylik va qiyinchiliklarni yengish malakasi o'sadi. III va IV sinf o'quvchilari motivlar kurashi natijasida burch deb bilgan motivlarni boshqalaridan ustun qo'yishga qobil bo'ladilar. Lekin ba'zan past darajadagi motiv ham ustun chiqishi mumkin(biron narsadan qanoat hosil qilishga intilish motivi). Mana shunday vaziyatda tarbiyachi qattiqqo'llik ko'rsatishi kepak.

Uquvchilarda III— IV sinflardan boshlab burch xissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi (agar burch hissi o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda tarkib toptirilgan bo'lsa). Maktabga kirish bola shaxsining tarkib topishi uchun yangi mas'uliyatli bosqichning boshlanishidir. SHuning uchun kichik maktab yoshidagi bu bolalarga nisbatan maktab va oila talablarining birligi xususan muhimdir. Maktab ta'limi boshidan bola ikki tomonlama tarbiyaviy ta'sir ostida bo'la boshlaydi. SHu sababli bu tarbiyaviy ta'sirlarning bir xil yo'nalishda bo'lishi nihoyatda muhimdir. Tarbiyaviy ta'sirda bunday yakdillikning bo'lmasligi o'quvchi xatti-harakatlarining batamom bo'zilishiga yoki ikki xil xatti-harakat shaqlarining tarkib topishiga olib keladi. Bu xatti-harakatlarning bir xili maktabda namoyon bo'lsa, boshqa xili (ba'zan unga mutlaqo teskarisi) uyda namoyon bo'ladi.

Qiziqishlar. Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqish, tevarak-atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish, ko'proq bilishga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi, Psixologlarning ta'kidlashlariga ko'ra, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. (I va II sinflarda). Undan keyin esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liliklarnn bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi (III va xususan IV sinflarda). Agar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilarin bu nimag'>> degan savol ko'proq qiziqтира, birmuncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun «nima sababdang'», «qanday qilib degansavollar tipik bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishibilan kitob o'qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastlab umuman kitob o'qishga, undan so'ng esa mazmuni o'tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaqlarni o'qishga bundan ham so'ngroq qiyin bo'lmagan ilmiy-fantastik va sargo'zashtlar haqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Texnikaga, ayniqsa hozirgi zamon texnikasiga raketalariga, oy stantsiyalariga, lunaxodlarga (oyda o'zi yuradigan mashinalarga), eng yangi tipdagi avtomobil

va samolyotlarga bo'lgan qiziqish tez tarkib topadi(ko'proq o'g'il bolalarda). Qishloq maktablarining III - IV sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada o'z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydilar. Bolalar parrandalarni, uy hayvonlarining bolalarini bajonu dil boqadilar, maktab oldi uchastkasida mamnunlik bilan ishlaydilar Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri ta'lim ishining tashkil qilinishiga bog'liqdir. SHuning uchun o'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishi zarurdir. SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, qiziqishlarning rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan o'zoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'qishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash uchun quyidagi printsipga amal qilish muhimdir, o'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda aktiv harakat qilish shunchalik katta roly o'ynashi lozim. Yuqorida aytib o'tilganidek, xususan o'qituvchining tegishli bahosi bilan aniqlanadigan bolaning o'qishdagi o'z muvaffaqiyatlarini, qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta ahamiyatga egadir.

Badiiy-estetik rivojlanish. Kichik maktab yoshidagi davrda bolalar badiiy-estetik rivojlanishning katta imkoniyatlariga egadirlar. Bolalar odatda rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash ishlariga, ashula aytish va mo'zikaga juda qiziqadilar. Bunday faoliyatni to'g'ri tashkil qilish, bir tomondan, bolalarda estetik hislarning rivojlanishiga yordam beradi, ikkinchi tomondan, tegishli qobiliyat komponentlarining rivojlanishiga yordam beradi(tenglik va yorug'lik munosabatlarini to'g'ri baholash, eshitish va ko'rish qo'zg'atuvchilarini nozik darajada ajrata olish, mo'zika eshitish, kuylarni eshitish orqali tasavvur qilish qobiliyati va shuning kabilar paydo bo'ladi). III va IV sinf o'quvchilarining ko'plari adabiy ijodiyot bilan shug'ullana boshlaydilar, she'r yozadilar, kichik ertaqlar va hikoyalar yozadilar. Ularning tematikalari tabiatdagi fasliy o'zgarishlar, o'z hayotlaridagi hodisalar va hissiyotlarining aks ettirilishidir. Bularning hammasi birmuncha katta yoshdagigi davrda mo'zikaviy, adabiy qobiliyatlar hamda rasm chizish qobiliyatlarining rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Kichik maktab yoshi davrida maxsus aqliy qobiliyatlarning, masalan, matematik qobiliyatlarning elementar ravishda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Psixolog I. V. Dubrovina tadqiqotlarining ko'rsatishicha, ko'pchilik bolalarda II sinfdan boshlab aqliy faoliyatning ular uchun eng optimal sohalarini namoyon qilish mumkin. I. V. Dubrovina bolalarning bir tipdagi operatsion faoliyatlarini turli materiallarda (obrazli-ko'rgazmali, so'z va raqamli materiallarda) eksperimental ravishda tashkil qilib, bolalarning turli materiallarga nisbatan oldinga tomon siljish templari hamda barcha operatsiyalarni o'zlashtirish tezliklari har xilligini ko'rsatdi. I. V. Dubrovina tekshirilgan ko'pchilik bolalarda bir xil tipdagi barcha sharoitlarda individual-optimal soha bo'lib, unda

bolaning oldinga qarab siljishi juda muvaffaqiyatli bo'lganligini aniqladi. Bu shundan dalolat beradiki, hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya sharoitlarida kichik maktab yeshi davrining birinchi yarmidan boshlaboq faqat badiiy qobiliyatlarnigina emas, balki maxsus aqliy qobiliyatlarni ham elementar, boshlang'ich tarzda namoyon qilish mumkin. Jamoa va shaxs. Jamoatchilik printsipligiga asoslangan munosabatlarni tarbiyalash uchun kichik maktab yoshidagi davr katta imkoniyatlarga egadir. Kichik maktab yoshidagi bola bir necha yil davomida to'g'ri tashkil qilingan tarbiya tufayli ,o'zining jamoadagi bundan keyingi taraqqiyotida muhim bo'lgan va jamoa uchun zarur bo'lgan faoliyat tajribasini to'playdi. jamoatchilik sifatlarining tarkib topishi sekin-asta amalga oshiriladigan protsessdir. Sinfda birgalikda qilinadigan ishlar o'z-o'zicha bolalar guruhini jamoa qilib qo'ymaydi. Birinchi sinf o'quvchilari ham hali o'zlarini butun bir jamoaning bir qismi deb his qila olmaydilar. Ular qandaydir ma'noda yakka-yakkadirlar, bir-birlariga bog'liq emaslar. Ularning hammasi ham hali bir-birlariga xayrixoh emaslar, ko'pincha ularda begonalik, ichi qoralik va sodda maqtanchoqlik alomatlarini namoyon bo'lishini payqash mumkin. Birinchi sinf o'quvchilari o'zlarining shaxsiy maktab vazifalarini yaxshilab bajarishga intiladilar. Ular qanday bulmasin, o'zaro yordamlashish haqida emas, balki partadagi yon qushnilari xalaqit bermasligi haqida o'ylaydilar (N. F. Doorinin va A. M. Bardian tadqiqotlaridan). Agar birinchi sinf o'quvchilari bir-birlariga yordam beradigan bo'lsalar, bu odatda ularning xususiy tashabbuslari bilan emas, balki o'qituvchining bevosita ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari bunday o'zaro yordam o'qituvchi orqali amalga oshiriladi (o'quvchi o'qituvchining iltimosiga javoban o'zidagi ortiqcha qalamni o'rtog'iga vaqtincha berib turganda qalamni oldin o'qituvchiga beradi, o'qituvchi esa o'quvchiga beradi).

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. .

O'quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi birinchi o'ringa chiqib bormoqda Milliy dasturda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida «Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat» olingan. Bu borada o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanish muammosini o'rganish ahamiyatlidir.

Bir qarashda vatanparvarlik tuyg'usi guyo barchaga ayon va ravshan tushuncha bo'lib, u haqida ilmiy mulohaza yuritish shart emasdek tuyuladi. Izlanishlar, vatanparvarlik

tuyg'usi falsafiy, siyosiy, ijtimoiy, ruhiy-tarbiyaviy mohiyatiga ko'ra alohida-alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganiladigan murakkab va qamrovi keng tushuncha ekanligini ko'rsatmoqda.

Demak, vatanparvarlik tuyg'usini tor doirada tushunmaslik lozim. Bil'aks, u jamiyat, halk, mamlakat va butun insoniyat hamda bashariyat manfaatdor bo'ladigan, katta maydonda ko'riladigan dunyoviy ahamiyatga ega bulgan salmoqli tushunchadir.

Prezidentimiz I.A.Karimov «CHindan ham, vatan to'yg'usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday pok va ulug' bo'lmog'i kerak. Vatanni ardoqlash, uni yomon ko'zlardan va harakatlardan asrab-avaylash, himoyalash, kerak bo'lsa, ona yurtimiz uchun jonimizni ham fido qilishdek buyuk insoniy fazilatni o'rganmog'imiz lozim.» deb ta'kidlab o'tganlar. Bugungi kun yurtiga, ona-Vatanga cheksiz muhabbat tuyg'usini qalbida mujassam etgan, dili pok, ma'rifatga tashna barkamol yoshlarni tarbiyalash o'qituvchilar va ziyolilar oldida turgan ulkan vazifadir.

Kichik maktab yoshidagi bola dunyoni go'zal his etsa, uning yosh qalbida vatanparvarlik tuyg'usi yanada kuchli uyg'onadi. Kelajakka bo'lgan ishonch, orzu-umidlar keng qanot yoza boshlaydi. SHu bilan bir qatorda bola muammo bilan yashashni o'rganishi lozim. Bolada nega bundayg' Nima uchun shunday bo'lishi kerakg' kabi muammoli savollar paydo bo'lsin. Bu kabi savollar yechimi kelgusida o'quvchini yana ham yaxshi o'qishga, mehnatsevarlik va ma'naviy-axloqiy poklik sari undaydi. O'quvchida qayg'urish, achinish, dildan iztirob chekish, tashvishga tushish, hayajonlanish holatlari yuzaga keladi. Ana shunda bolada dunyoni yanada aniqroq idrok qilish ehtiyoji paydo bo'ladi, o'ziga xos did va fahm-farosat shakllanadi.

Kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish uzoq muddatli, murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi bir qator omillarning ta'siri asosida kechadi. Tadqiqotni olib borish chog'ida ta'lim muassasalari kichik maktab yoshida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning muhim omillari quyidagilar ekanligiga ishonch hosil qilindi

Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi materialning shakli:

- kitoblarda bayon etilgan bo'lishi;
- matnga oid maxsus ko'rgazmali qurollar tayyorlangan bo'lishi mumkin.

Yozma nashr shaklida ko'pchilikka manfaatli ma'lumotlar qo'ldan-qo'lga o'tib, o'z auditoriyasini kengaytirishi qulay bo'ladi; o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kitobiy matnlar yoki e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatsini shakllantiruvchi ko'rgazmali qurollar qayta-qayta o'qilishi, hattoki yod olinishi mumkin bo'ladi; kitobiy tilda yozilgan biror matn murakkabroq, tushunarsiz bo'lsa, o'qituvchi tomonidan, detallashtirilib tushuntirilib berilishi kerak va hokazo.

Dars va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarga e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini singdirishda psixologik jihatdan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir muhim

jihati – qanday vositalar yordamida berilayotgan ma’lumotni qay tarzda yetkazish masalasidir. Kitoblar, tayyor ko’rgazmali qurollardan tashqari hozirgi kunda audio-video vositalar, multimedialar, videoslaydlar, masofali o’qitish, elektron versiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bizningcha, qo’yilgan maqsadga erishishda audio-vizual idrok etish vositalaridan o’rinli va unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Sport ham musiqa san’atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg’usiga ega bo’lishlariga samarali ta’sir ko’rsatadi. SHu sababli o’quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni o’zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

O’quvchilarni o’zbek sportining yorqin namoyondalari – Rufat Risqiev, Mixayil An, To’lagan Ishoqov, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Azamat Abduraimov, Muhammadqodir Abdullaev, O’tkirbek Haydarov, Bahodir Sultonov, Artur Grigoryan, Ruslan CHagaev, Akobir Qurbonov, Abdulla Tangriev, Rustam Qosimjonovlarning faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratishga alohida e’tibor berish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida jahon va respublika miqyosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan sportchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish o’quvchilarga ulardan namuna olishlariga imkon beradi. SHuningdek, o’quvchilarda fizkul’tura va sport bilan doimiy shug’ullanish ko’nikmalarini shakllantirish ham ularning kelgusida sport sohasida mamlakat obro’sini ko’tarishlari uchun asos bo’lishi mumkin.

O’quvchilarning sportning turli yo’nalishlari bo’yicha xalqaro va Respublika miqyosida o’tkazilayotgan, jumladan, «Barkamol avlod» musobaqalarida ishtirokchi yoki tomoshabin sifatida ishtirok etishlari ham ularning milliy iftixor tuyg’usiga ega bo’lishlariga yordam beradi.

O’rta umumiy ta’lim muassasalari o’quvchilari o’rtasida «Barkamol avlod» musobaqalarining keng ommalashishi alohida e’tiborga loyiq. «Barkamol avlod» musobaqalarida ishtirok etish o’quvchilarning jismoniy jihatdan barkamol bo’lishlarini ta’minlabgina qolmay, shuningdek, ularga ma’naviy ozuqa ham beradi. Jamoa yoki ta’lim muassasasi sharafini himoya qilish, oliy maqsad sari intilish o’quvchilarni vatan va xalq xizmati uchun yo’naltiradi. Ularda o’zgacha shijoat, qat’iyatlilik va fidoiyligni tarbiyalaydi.

Davlat ramzlari. Davlat ramzlari har qanday mamlakatning eng oliy qadriyatlaridan biridir. Binobarin, ularda davlatning shakllanish tarixi, millatning turmush tarzi, hayotiy yondoshuvlari, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy qadriyatlari mohiyatida aks etgan orzu-umidlari, niyat-o’ylari, kelajak intilishlari o’z aksini topadi.

Davlat ramzlari xalqaro maydonda mamlakat, millat nomini keng yoyishda muhim vosita hisoblanadi. SHu sababli o’quvchilarda davlat ramzlariga bo’lgan cheksiz hurmatni qaror toptirish ta’lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O’quvchilarning

vatanparvarlik qadriyatlari shakllantirishda ular tomonidan davlat ramzlarining asl mohiyatini anglab yetilishiga erishish alohida ahamiyatga ega.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish (uni oddiy bir vosita sifatida emas, balki ta'sirchan kuchga ega predmet tarzida qo'llashga erishish) muhimdir. Bu o'rinda o'quvchilarda davlat ramzlaridan ommaviy bayramlar, ta'lim muassasalari an'alariga aylangan tadbirlar, o'quvchilarning mehnat, sport va ilmiy anjumanlarida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

O'quvchilarni birinchi sinfga qabul qilish, bitiruvchi sinf o'quvchilarning xayrlashuv kechalarida davlat ramzlari qarshisida turib davlat madxiyasini ijro etishlari ham o'ziga xos ta'sirchanlik kasb etadi.

Demak, ta'lim muassasalari o'quvchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda samarali bo'lgan omillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday omillar sirasida millatning shonli tarixi, milliy til imkoniyatlari, xalq qahramonlarining jasorati, milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an'alar), xalq og'zaki ijodi, adabiyot, ilm-fan, san'at, xalq hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, rassomlik, milliy musiqa va qo'shiqchilik, raqs san'ati hamda san'atning boshqa turlari (kino, teatr, tsirk, milliy dorbozlik) muhim ahamiyatga ega.

1.2 Kichik maktab yoshidagi bolalariga do'stona munosabatlar ulardagi vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning muxim ijtimoiy psixologik omili sifatidagi ahamiyati

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, nazariy va amaliy asoslarga ega bo'lgan ish usullari orasida maktabda bolaga do'stona munosabatni ta'minlash alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda so'nggi yillarda ta'lim – tarbiya sohasida qo'llanib kelayotgan bolaga do'stona munosabatdagi maktab tushunchasining mazmun – mohiyati maktab tomonidan bola huquqlarini kafolatlash va bola shaxsining sog'lom bo'lishi, uning har tomonlama uyg'unlashgan holda kamol topishiga erishish hamda bolaning aqliy, ma'naviy, axloqiy, jismoniy o'sishi bilan bog'liq barcha imkoniyatlarini to'liq rivojlantirib borish uchun eng qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Bolaga do'stona munosabatdagi maktab tamoyillari maktabni boshqarish va o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish bilan bog'liq barcha sohaga joriy qilinadi va uning natijasida o'quv mashg'ulotlarida barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini hamda qiziqishlarini oshirishni ta'minlash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Bolaga do'stona munosabat maktab hayotini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish jarayonlarida: dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari ishlarda, maktab hududida, turli tadbirlarda o'quvchilarning o'quvchilar bilan, o'qituvchilar va maktab rahbarlarining o'quvchilar, ota-onalar

bilan hamda o'zaro munosabatlarida amalga oshiriladi. O'qituvchi pedagoglar bolaga do'stona munosabatdagi maktab tamoyillari va tashkiliy-pedagogik hamda psixologik masalalari bo'yicha nazariy, uslubiy bilimlar va amaliy ish tajribalariga ega bo'lishlari muximdir. Maktab rahbarlari va o'qituvchilarining bolaga do'stona munosabatdagi maktab haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini oshirish maktablardagi ta'lim va tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirib borishda ijobiy natijalar bermoqda. Bolaga do'stona munosabatlar maktabning qoida va tamoyillari qo'p yo'nalishlarga ega bo'lib, bulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

ta'lim — tarbiya jarayoni maqsadlariga erishishda o'quvchilar bilan hamkorlik, hamfikrlik, hamijodkorlik muhitini yaratish;

- o'quvchilar bilan hamkorlikda qat'iy nazoratni yo'lga qo'yish;
- o'quvchilarga nisbatan samimiylik, hurmat munosabatlarini o'rnatish;
- o'zaro muloqot madaniyatini oshirib borish shakllarini joriy qilish;
- maktabda intizom qoidalariga rioya qilish mexanizmini tatbiq qilish;
- o'quvchilarga zarur erkinliklar berish va o'zaro xurmat va ishrnchga asoslangan nazorat o'rnatish shakllarini joriy qilish;
- o'quvchilarga nisbatan, talabchanlik, adolatlilik va ishonch munosabatlarini o'rnatish;
- o'quvchilarning qiziqishlariga, tashabbuslariga xayrixohlik va tegishli sharoitlar yaratish.

Yuqorida aytilganlarni amalga oshirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

-Barcha o'quvchilar, ayniqsa, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga va turli darajadagi qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarning o'quv jarayonida ishtirok etish imkoniyatlarini to'liq ta'minlash;

- bolaning hayotiy ehtiyojlariga mos va samarali bilim va ko'nikmalar berish;
- bolaga psixologik, emotsional va jismoniy qulayliklarni ta'minlash;
- bola uchun sog'lom, xavfsiz va muhofazalovchi psixologik muhit yaratish;
- bolalarning teng rivojlanishini va jinslar orasidagi farqni hisobga olgan holda zarur imkoniyatlar yaratish;
- maktabni boshqarishda bolalarni qo'llab-quvvatlashning barcha yo'nalishlari bo'yicha ishlarni olib borish;
- maktab faoliyatida o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilikning faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratish.

Ushbu shartlarni amalga tatbiq etish bo'yicha tegishli mezonlar batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari quyidagicha belgilanadi:

- Do'stona, rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash.
- Qo'llab-quvvatlovchi hamkorlik va faol ta'limni amalga oshirish.
- Jismoniy jazolash va zo'ravonlikni taqiqlash.

- Mazax qilish, ta'magirlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik.
- Ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi muhit yaratish.
- Ota-onalarni maktabga jalb qilish, maktabning oilalar bilan aloqasini ta'minlash.
- Teng imkoniyatlarni hamda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish.

Xulosa qilib aytish mukinki, bolaga do'stona munosabatdagi maktab usullari, vositalari, shakllarini maktablarda pedagogik jamoa a'zolari tomonidan hamkorlikda amalga tatbiq qilish ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega. Psixologik jihatdan bolalik da har qanday muammoni yechish yoki bu davrda tarbiyada biror bir maqsadga erishish uchun bolaga do'st bo'lish kerak bo'ladi. Do'st bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dard-hasratlarini muhokama qiladi, muamolarini u bilan o'rtoqlashadi. Do'stlikning ham ko'zlagan maqsadlari bo'ladi: u amaliy, ish faoliyat bilan bog'liq, sof emotsional (ya'ni, muloqot ehtiyojlarini qondirish), ratsional (intellektual muammolarni hal qilishga asoslangan), axloqiy (o'zaro insoniy sifatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi) bo'lishi mumkin. Do'stlikning birinchi sharti – o'zaro bir-birini tushunish Demak, bizning holatimizda kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda o'qituvchilar, tarbiyachilarni tarbiyalanuvchiga yanada yaqinlashishlari, unga do'stona munosabatda bo'lishlari, o'z fikrini tarbiyalanuvchiga do'stona singdira olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar bola kamol topayotgan oilada yoki jamoada samimiy munosabatlar muhiti mavjud bo'lsa, uning do'stlari, tengqurlari, qarindosh-urug'iga nisbatan mehr-muruvvati qo'llab-quvvatlab turilsa- bu iliq qadriyatlar Vataniga, xalqiga muhabbat, do'stga sadoqat, ota-onaga va ustozlariga mehr-sahovat, yaqinlarini e'zozlash, ular bilan faxrlanish kabilarga aylanadi. Bularning mavjudligi esa shaxsning barkamolligi, unda barcha insoniy fazilatlar mavjudligining muhim mezonlaridan hisoblanadi.

1.3 BOLA SHAXSIDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANISHIDA OILA HAMDA OILAVIY AN'ANALARNING O'RNI

Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat—engilmas kuch» asarida «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. deb ta'kidlaganlar CHunki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi», deb yozgan edi.

Oila mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllanganidan boshlab, to istiqloq davrimizgacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila tarixning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi.

Teg <cut> Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yuksak ma'naviyatni shakllantirish Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar oilani, jamiyatni sog'lomlashtiruvchi kuch sifatida odamlarni oilaga yangicha bir ko'z bilan karashga undadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov oila omiliga, imkoniyatlariga alo-hida to'xtalib, «Vatan tuyg'usi oilaviy mehrdan boshlanadi» deb ta'kidlagan edi-lar.

Istiqloq sharofati bilan ma'naviy tiklanish jarayonlari dadil kechayotgan mamlakatimizda oila instituti ijtimoiy hayotda tobora mustahkamroq o'rin egallab, fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oila masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi esa bu boradagi katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Bu imkoniyat oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirishga, ularning huquqiy va tib-biy ongini shakllantirishga, sog'lom turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda.

Oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, ma'naviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish yumushining ma'naviy asosidir. SHu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov, «oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash – bugungi kunimiz uchun, ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va angla-shimiz darkor», — deya alohida qayd etganliklari bejiz emas.

Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda, esa ichdan yemirilish, ma'naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko'ra talofatliroqdir.

Bolalar tarbiyasi borasida kattalar uchun muhim bo'lgan, lekin har kunlik turmush tashvishlarimizda e'tibordan chetda qoladigan uch qiyosiy jihat: bolalarga mehr berish, xonadon uchun kitob tanlash va bolalar ishtiyoqiga moyillik bildirish alohida ahamiyatga ega.

Oilada ota-onaning farzandlar bilan qancha ko'p vaqt birga bo'lishi, o'zaro muloqotlar, o'rgatilgan bilim va kasb-korlar mehr tuyg'usining shuncha mustahkamlanishiga olib keladi. Ma'lumki, hayotga endigina kirib kelayotgan bolada atrof-muhit, odamlarda yuz berayotgan o'zgarishlar borasida har kunda o'nlab savollar, jumboqli holatlar yuzaga keladi. Bola bunday savollarni ota-onaga bera olmaganligi va malakali javobga ega bo'lmaganligidan jumboqlarning yechimini tasodifiy shaxslardan, aksariyat hollarda o'z tengdoshlaridan izlashga majbur bo'ladilar. Natijada, kichik yoshdagi bolalar, har tomonlama to'g'ri, jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy foydali bo'lgan malakali javoblarga ega bo'lmaydilar. Buning oqibatida esa, yoshlar tarbiyasi muayyan izdan chiqib, umumiy axloq, milliy an'analar ruhiga zid bo'lgan holatlar yuzaga keladi.

Oila muhitida ota va onalarning farzandlar taqdiri uchun favqulodda mas'ulligi masalasi rivojlangan barcha mamlakatlarda doimiy ravishda kun tartibida turadi. Xususan, Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'zaro tanish ayollarning bir-birlari bilan uchrashib, o'tkazadigan suhbat, muloqotlari majmuida o'ttiz foizgacha vaqt o'z farzandlarining o'qish va ishlaridagi ahvoli, yigirma foiz vaqt shaxsiy takomillashuv, ya'ni, o'zlashtirgan yangi kasb-korlari, o'qigan kitoblari, ko'rgan filmlari haqida va faqat yigirma foizgacha vaqt tanish-bilishlarning maishiy holati, kayfiyatlari, sog'ligi, turmush o'rtog'ining muammo-lari masalalari band etar ekan.

Oilada farzandga kitob o'qish, muhokama qilish, qanday o'qish kerakligini maslahat berish yumushi va ota-onalarning kitob tanlash mahorati alohida ahamiyatga ega. Zero, kitob mutolaasi bilan o'tgan hayot-fikrlar go'zalligi bilan oshno bo'lish, madaniy boylikdan huzur qilish, o'z-o'zini yuqori ko'tarishdir. Endigina kitob dunyosiga qadam qo'yayotgan bolalarning qo'liga saviyasi past, zeri-karli kitob tushib qolsa, kitobga mehri uyg'onmasdanoq qiziqishi so'nib qoladi. Uy kutubxonasi undagi qimmatli kitoblar soni bilan emas, balki kitoblarning ilmiy va badiiy qimmatini, oila a'zolarining qiziqishlarini qoniqtirishi bilan belgilanadi.

XXI asr texnik yuksalishlar asri bo'lsa-da, bolalar bilan samimiy tuyg'ular, go'zal narsalar, axloq me'yorlari haqida suhatlashish ahamiyatlidir. Ularga o'zimizning iqtisodiy muammolarimiz, ijtimoiy mavqemiz nuqtai nazaridan emas, endi dunyoni anglab, unga nisbatan muayyan munosabati shakllanayotgan shaxs sifatida e'tibor berish kerak bo'ladi. SHunda bolalarning ham alohida olamlarga o'tib, o'z qobig'iga o'ralib yashashlariga hojat qolmaydi.

Insoniyat tarixida hayrat cho'qqisida eng uzok turgan kashfiyotlardan biri bu kompyuter va internet bo'lsa, ajab emas. Bolalarni kompyuterdan «ajratib olish» muammosi ko'plab mamlakatlarda kun tartibidagi masalaga aylangan. Masalan, Buyuk Britaniya maktablarida joriy yildan o'kuv dasturiga yangi fan kiritildi. Bu Baxt darsidir. Ushbu fanning asosiy vazifasi bolalarni o'ziga ishonish, tashqi dunyo murakkabliklariga bardosh berishga va tushkunlikka tushmas-likka o'rgatishdir. Mutaxassislarning so'zlariga ko'ra, so'nggi paytda ingliz maktablari o'kuvchilari orasida tushkunlikka tushish hollari haqiqiy epidemiyaga aylangan. SHuning uchun ham barcha davlat maktablarida psixologlar maxsus ishlab chikilgan dastur bo'yicha baxt darslarini o'tishga qaror qilishdi.

Bugungi kunda kompyuterga birinchi navbatdagi ko'ngilochar vosita, deb qaraladigan bo'lib qoldi. Ayniqsa, bolalar kompyuterga ko'zi tushgan zahoti darrov «o'yinlari bormig'» deb so'rashadi. CHunki, kompyuter o'yinlari juda murakkablashib, bolalar uchun nihoyatda qiziqarli bo'lib ketgan. Farzandlarimiz u yerdagi o'yinlarni g'oyatda chaqqonlik, ustalik bilan o'ynashini ko'rib, qoyil qolamiz. Biroq, o'yinni zo'r o'ynagan bola kompyuterda ishlashni ham yaxshi biladi, degani emas.

Ota-onalar farzandlarining ushbu qiziqish motivini o'z maqsadlari-mizga «bo'ysindirishilari» lozim. Masalan, do'konlarda ta'limiy-mul'timediali vositalar ham oz emas. Jumladan, turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan «Inglis tilini mustaqil o'rganish» mul'titrenerlari, «Alifbo» va «Aljabr» trinajyorlari, muayyan sinflar uchun fanlar bo'yicha elektron darsliklar yoki fikrlashni rivojlantiruvchi va bolaning ijodiy qobiliyatlarini o'stiruvchi o'yinlar bilan ishlashga undash o'z samarasini beradi.

Bir qarashda uncha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli tuyulmaydigan mazkur qiyosiy tahlil ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi, ularni katta hayotga maqsadli tayyorlab borish ishlaridagi o'rni, qolaversa, mamlakatning umumiy taraqqiyoti holatiga bo'lgan bevosita hamda bilvosita ta'sirini belgilab beradi.

Har bir insonning, har bir oilaning, jamiyatimizning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy va ma'naviy tomondan yetuk qilib tarbiyalash, ota-onasiga, Vataniga sodiq insonlar qilib tarbiyalashdan iborat Vatan, avvalo oila demakdir. SHunday ekan, oilaning mavqeini anglash, uning sha'ni, obro'-e'tiborini saqlash, g'ururini yuqori darajaga ko'tarish har bir insonning eng oddiy burchi sanaladi. Oila muhitida berilayotgan tarbiya farzandlarni qon-qarindoshlikni ulug'lash, oila sulolasi manfaatlari yo'lida birlashish, uning sha'nini saqlashga o'rgatadi. O'z oilasi uchun fidoiy bo'la olgan, uni qadrlay olgan insongina Vatanini, xalqini qadrlay oladi.

Oilalarning sha'ni, mavqeini belgilashda oila an'analari muhim ahamiyatga ega. Oilada turli oilaviy bayramlarni nishonlash, o'tganlarni yod etish, birgalikda harakat qilishning yorqin

ko'rinishi bo'lgan mehnat tadbirlarini tashkil etish yoshlar tomonidan o'zlikning anglanishiga yordam beradi. SHu sababli ana shunday tadbirlarning o'tkazilishiga jiddiy e'tibor qaratilishi zarur. Binobarin, bu kabi harakatlar farzandlar tomonidan oila manfaatlari nimadan iborat ekanligini anglash, oilaviy sulola hayoti uchun dahldor bo'lgan qadriyatlar haqida ma'lumotga ega bo'lishga imkon beradi.

Oila sulolasining avlodlari tomonidan meros bo'lib o'tayotgan uy-ro'zg'or yoki bezak buyumlari, kitoblar, solnomalar, shajaralar o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlovchi muhim omillardir.

Oila tarbiyasida oilaning butun turmush tarzi va ota-onalarning bolalar bilan munosabati katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, aqliy rivojlanish insonning butun umri mobaynida amalga oshsa, bundan farqli ravishda xarakter, iroda, hissiyot asosan bolalik va yoshlik yillarda tarkib topadi.

Oilada farzand tarbiyasi mas'ullikni talab etadi. Mas'uliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarni oldindan tasavvur qiladi zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. Bunga erishishning eng qulay yo'li - avvalo tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu esa ota-onalardan farzand oldidagi, el-yurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimiz, eng nodirligini turmushga singdirish orqali bolalarda insoniy munosabatlarni shakllantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

O'zbek oilasi-ko'p avlodli oila, ya'ni bola ongida sog'lom g'oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari-bobolar, momolar, yaqin qarindosh urug'lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan bola tarbiyasida ota-onadan ham ko'ra bobo, buvi, qo'shni va qarindoshlarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz tarixida muxim o'rin tutgan. Biroq bu omillarning hozirgi, real hayotdagi haqiqiy xolatini maxsus o'rganib chiqmoq kerak.

Oilada ota-onaning, shu oiladagi kattalarning yurish-turishdan tortib, so'z madaniyati, keyinishi, kishilar bilan muomalasi, xatto atrof-muxitga munosabati va shu singari oddiy bo'lib ko'rinadigan holatlar ham bola tarbiyasida katta ta'sir qiladi.

Qatrada quyosh aks etganidek, bolada ota onaning ma'naviy qiyofasi xam aks etadi. Zero Xadisda "xech bir ota o'z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi -deyiladi. Xaqiqatan ham bola kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muxitga bog'liq. SHunday ekan har bir ota ona o'z farzanidini ezgu maqsadga intiluvchan kattalarni e'zozlaydigan kichiklarga

muruvvatli o'qish va ishda matonatli, qat'iy tashabusskor uyushqoq qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari lozim .

Vatanparvarlik qadriyatlari dastlab ongimizga bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali singdiriladi. Oilasini sevgan, yaqinlarini e'zozlagan tarbiyalanuvchi shaxs hech qachon Vataniga qarshi bo'lmaydi, uni sevadi, ardoqlaydi, kelajagi uchun kurashadi. Vatanparvarlik qadriyati, avvalambor, o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, o'zaro muloqotda SHarqona madaniyat va zamonaviy shakllarni uyg'unlashtirish, xalqimizga ota-meros mehnat tarbiyasi, uning farovon hayotning asosi sifatida qadrlanishiga erishish orqali shakllanib boradi. O'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, latifa, hikmatlardan keng foydalanilgan. Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalar ruhiy oziq olgan, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat, yomon xislatlarni bilib olishgan, hurmat va muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir ham shunday bo'lmoqda. Ularning qahramonlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat, faxr-iftixor namunasidir.

Ota-ona oilada bolaning nima ish bilan shug'ullanishi, qanday kitoblarga qiziqishi, qanday filmlar tomosha qilishi, qanday musiqaga qiziqishi, kasb tanlashdagi intilishlari kabi harakatlarini kuzatib, ularni nazorat qilib, maslahatlar berib borishi lozim bo'ladi. Zamonamizning yana bir unchalik e'tibor qaratilmayotgan, lekin e'tibor berishni talab qiladigan tomoni shundaki, hozir o'zbek oilalarida avvalgiday ko'p bolalilik an'anasi kamayib bormoqda. Avval ko'proq bolalar aka-ukalari, opa-singillari bilan yaqin bo'lib, tarbiyada ularning ta'siri ko'proq sezilgan bo'lsa, hozirgi kunda asosan ota-ona bitta yoki ikkita farzandining yaqin maslakdoshi bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda, ayniqsa, ota-onaning savodxonlik darajasi ham inobatga olinishi kerak bo'ladi. Oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odatlarimiz va an'alarimizni hayotimizga singdirish, bolalarimizda qadriyatlarimizga mehr-muhabbat uyg'otish, "Vatan ostonadan boshlanadi", - degan purma'no hikmatning mag'zini chaqish, e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatsini singdirishning qanday natijalarga olib kelishi, barkamollikka erishgan farzandimiz oilasining yuzini yoriq qilishi kabi tushunchalarning ma'nosini, avvalo, ota-onalarimiz anglab yetsalar, bolalarimiz bilan ta'lim muassasalarida ishlash osonroq kechadi, deb o'ylaymiz. Oilada bola ma'naviyati va vatnaparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda quyidagi qoidalarga asoslanishi zarur

- ❖ kreativlik-bola qobiliyatlarining erkin rivoji;
- ❖ insonparvarlik-shaxsni eng oliy qadriyat sifatida qabul qilish;
- ❖ demokratizm-kattalar va bolalar tengligi;

- ❖ fuqarolik-shaxsning “Men”ni anglashga erishishi;
- ❖ retrospektivlik-xalq pedagogikasi an’analari asosida tarbiyalash;
- ❖ umuminsoniy axloqiy me’yor va qadriyatlar ustunligi.

O.Musurmonova "Oila ma’naviyati milliy g’ypyp" nomli asarida o’zbek oilasi ko’p asrlik tarixga ega bo’lib, bola tarbiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib o’tgan [16]. Muallif ta’kidlaganidek, "Oila insonlarning tabiiy-biologik, fiziologik, iqtisodiy, huquqiy-qonuniy, ma’naviy-axloqiy aloqa munosabatlari asosida qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. ... U jamiyatning ajralmas bir bo’lagidir. ... Oila tarbiyasi birinchi navbatda, ota va ona zimmasiga tushadi. Bolalar tarbiyasiga asosiy ta’sirchan kuch-qudrat, bu onadir. Bu o’zbek oilalari tarixidan ma’lum bo’lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo’lib qolgan an’anadir. Oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama jipsligini ta’minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixordir

“Ammo bir haqiqatni chuqur anglab olish darkor: har bir odam, oila, qolaversa, butun el-yurtimizning baxtu saodati, jamiyatimizning barqarorligi ko’p jihatdan odamzod tayanib yashaydigan g’oya va maslakning qanchalik to’g’ri va insoniyligiga, bu e’tiqod uning oilasi, farzandlari, xalqining ezgu maqsadlariga, hayotiy manfaatlariga nechog’li mos kelishiga uzviy bog’liqdir” - deganda respublika Prezidenti I.A.Karimov to’la haq edi.

O’zbek oilalarida tarbiyaning yana bir muhim jihati shundaki, bobolar va buvilar bola tarbiyasida bevosita ishtirok etadilar. O’zbek farzandiga kattalarni hurmat qilish kerak, degan gap kam aytiladi, chunki unga ota-onasining o’zidan kattalarga muomalasi, qariyalarni tashlab qo’ymaslik, kasallarning holidan xabar olish, chorasizlarga yordam berishni jonli misollarda har kun ko’radi. Bu xislatlar bizga ota-bobolarimizdan meros va bizning milliy iftixorimizdir. Tarixda ham, masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan yoshi ulug’ buvilari shug’ullanishlarini lozim topgan, SHohruh Mirzoning, nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug’bek Mirzolarning tarbiyasi bilan Saroy Mulk xonim shug’ullanganlar.

O’zbekistonda oila hamisha davlat himoyasida, oilada bolalarning sog’lom tarbiya topishlari uchun, o’qish va kasb o’rganishga sharoitlar yaratilishi uchun hukumatimiz tomonidan qator ishlar qilinmoqda. Yillarning “Oila”, “Ayollar”, “Sog’lom avlod”, “Onalar va bolalar”, “Salomatlik yili” deb atalishi va shu munosabat bilan qator tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilganligi bunga yaqqol misoldir.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda "Maktab-oila-mahalla" tizimining shakllantirilishiga erishish bolalarda mustahkam ma’naviy-axloqiy e’tihodni shakllantirish omili ekanligi haqida fikrlar ilmiy metodologik islomiy ta’limotlar, xalq og’zaki ijodi va

xalq pedagogikasi, sharq allomalarining odob-axloq haqidagi qarashlari muxim ahamiya kasb etadi

Demak, kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida bu muammoning psixologik jihatlarini o'rganish, bolalarning dunyoqarashlari, qiziqishlari, iqtidorlarini inobatga olib, tarbiyachi va ota-onalarning ta'sirini kuchaytirish orqali harakat qilinsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

II BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

2.1 O'rta osiyo allomalarining Vatanparvarlikning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsa va xodisalar, insonlar hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklar ahamiyatni ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha Qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha moddiy va ma'naviy unsurlar tushuniladi Qadriyatlar asrlar davomida amaliy faoliyatda shakllanadi va rivojlanadi Qadriyat inson yaratgan va yaratayorgan moddiy va ma'naviy boyliklarning asosidir Qadriyatlarning ahamiyati shundaki ular insonlarning xulq atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi Ayrim qadriyatlar davriy tarixiy ahamiyat kasb etib vaqto'tishi bilan o'zgarishi mumkin SHu bilan birgalikda universal xarakterga ega bo'lgan qadriyatlar ham mavjud vatanparvarlik qadriyatlari ham universal xaraktarga ega bo'lgan, oliy qadriyatlar tizimiga kiradi

«E'tiqod bu – shaxsni o'z qadriyatlari tizimidan kelib chiqib harakatga qo'zg'atadigan anglangan ehtiyoj»^[10]. E'tiqod – ishonch bilan qarash; til va dil bilan iqror qilish shaklida ham talqin qilinadi^[11].

«E'tiqod (arab. "i'tiqodun" – ishonch, iymon, amin bo'lish) – inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha. E'tiqod insonning voyaga yetishi jarayonida shakllanadi. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olingandagina e'tiqodga aylanadi»^[12].

Adabiyotlarda «sog'lom e'tiqod» tushunchasining ilmiy ta'rifi hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bizningcha, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga tayanadigan, taraqqiyotga yo'naltirilgan ezgu va bunyodkor g'oyalarga ishonchga asoslangan e'tiqod shakliga *sog'lom e'tiqod* deyiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom e'tiqodni tarbiyalashda oila va oila a'zolarining ta'siri yetakchilik qiladi. SHu sababli biz kichik yoshli o'quvchilarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlari tarbiyasini eng muhim omil sifatida e'tirof etamiz.

Vatanparvarlik hissi – yuksak va murakkab hisdir. Bu his murakkab va xilma-xil hislarning: ma'naviy, intellektual, estetik hislarning sintezi (birlashmasi) dir. Bu hislar bir-biriga qo'shilib, vatanparvarlik qadriyatlariga aylanadi.

Vatanparvarlik - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridandir. Vatan - arabcha soʻz boʻlib oʻzbek tilida «Ona yurt» degan maʼnoni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos boʻlgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida oʻz uyiga, tugʻilib oʻsgan yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga boʻlgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik bu umuminsoniy qadriyatlarga xos boʻlib, u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarhadlarini tashqi dushmanlardan, terrorizmdan himoya qilish, uning mustaqilligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok etmoqdir.

Vatanparvarlik qadriyatlari vatanni his qilishda, Vatanga boʻlgan tuygʻusidan boshlanadi. Vatanparlik qadriyatlari shakllangan insongina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Vatanparvarlik umuminsoniy qadriyatlarga boʻlgan sadoqatning negizi sifatida hayotimizni farovon, erkin qilish yoʻlida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun, jon fido qilishga tayyor boʻlgan avlodni voyaga yetkazishni talab qiladi.

Vatanparvarlik qadriyatlari ijtimoiy qadriyat boʻlib, odamlarni ahil, bir oila qilib birlashtiradi.

Bolalar oʻz Vataniga nazar solib, uni bepoyon yerlarini, boyliklarini, goʻzalligini sahovatli xalqini tasavvur etganida, unda oʻz Vataniga qoyil qolish va unga mehr-muhabbat bilan qarash hislari, oʻz mamlakati uchun faxrlanish va uning ulugʻvorligidan xursand boʻlish hislari beixtiyor paydo boʻladi.

«Avesto»ning tub maʼno-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan boʻlsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini koʻrish mumkin. Ana shunday fikrlar, yaʼni, ezgu niyat, soʻz va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor gʻoyasi sifatida talqin etish bizning bugungi maʼnaviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bogʻliq, nechogʻliq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa eʼtiborlidir. «Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uygʻunligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bogʻliq holda koʻrsatilgani koʻp narsani anglatadi. Bu holat insonning maʼnaviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli taʼsir oʻtkazib kelganiga yana bir bor eʼtiborimizni jalb qiladi. Maʼlumki, bu dunyoda har qaysi millatning oʻz afsonaviy qahramonlari, oʻzi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari boʻladi. Xalqimiz azaldan oʻz vujudi, oʻz tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib boʻlmoqqa intilib, oʻz oʻgʻlonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan. SHu maʼnoda, xalq ogʻzaki ijodining noyob durdonasi boʻlmish «Alpomish» dostoni millatimizning oʻzligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga oʻtib kelayotgan qahramonlik qoʻshigʻidir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston

bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

SHu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi. Bir paytlar, aniqrog'i, o'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko'pgina namunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot. CHunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

SHu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy - hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan - bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani - hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz. Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz - bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi

Jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'beklarning jasorati vatnparlik qadriyatlarini yanyada mustaxkamlaydi. Ibn Sino jahon tabobat ilmini muvaffaqiyatlariga osonlikcha erishmadi. U o'sha zamonlarda din kuchli bo'lgani uchun kasallik sirlarini yashirincha o'rgandi, ya'ni yangi murdalarni kechasi qabrdan kovlab olib, sham

yorig'ida ularni tekshirib ko'rdi. Ulug'bek esa koinot sirlarini o'rganishda ham kuchli qarshiliklarga duch keldi. Yoki A.Navoiy, Nizomiy, Umar Hayyom, Bobur, Furqatlar ham buyuk qahramonlik evaziga original mazmun va shaklga ega bo'lgan asarlarni meros qoldirdilar. Bu tarixdagi qahramonlik, bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish uchun manba rolini o'ynaydi.

Masalan, Alisher Navoiyning butun hayoti xalqqa va millatga fidoiylikning namunasi sifatida, turkiy xalqlar adabiyotiga asos solishga bag'ishlanganligi, Muhammad Al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, kabi buyuk allomalarimizning ilm va ijod yo'lidagi qat'iyatlari, erishgan yutuqlari e'tiqodlilikning yorqin namunasi. XP asrning iste'dodli shoiri va donishmandi Ahmad Yugnakiy «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asarida ilmi va ilmsizning, olim va johilning farqli tomonlarini shunday ochib beradi: «...bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt-saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arziyas qalbaki (aqcha)dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol er(mard)dir, bilimsiz er ayol(zaif)dir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko'rki aql, suyakning ko'rki ilikdir. Bilimsiz iliksiz suyakdek bo'sh – quruqdir, iliksiz suyakka esa qo'l uzatmaydilar. Er kishi bilim o'rganib, bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko'rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham oti o'chmaydi, bilimsiz kishi hayot chog'ida ham uning oti o'likdir». Bu purhikmat fikrlar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ma'rifatning inson qadr-qimmati va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim») nomli asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlarini o'zlariga hayot dasturi qilib olgan biror inson adashmaydi, alloma va uning asarlari milliy iftixorimiz ekanligini yanayam chuqurroq anglaydi: «Zakovat qorong'u tundagi mash'al kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug'likdir. Kimda zakovat bo'lsa, o'sha asil odam bo'ladi, kimda bilim bo'lsa, u martabaga erishadi. Bilim javohir kabi bir yerda to'planib turadi, u zakovatning konidir, bir yerda jamlanib yotadi. Mushk-anbar va bilim bir-biriga o'xshash narsalardir, ularni o'zidan bo'laklardan yashirib saqlab bo'lmaydi. Mushk-anbarni yashirsang, uni hidi oshkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi. Bilim o'z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas

Ma'lumki, temurzodalar tarbiyasi Bibixonim bilan bog'liq. Bibixonim SHohruh Mirzo, Ulug'bek, Muhammad Sulton, Halil Sultonlarning ilm-ma'rifat, milliy iftixorni egallashlarida rahnamolik qilgan.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, iftixori Zahriddin Muhammad Bobur boburiylar hukmronlik qilgan yillarda Hindiston - Dehli, Agra, Panjob, Olloqobod,

Lohur, Kashmir, Haydarobod kabi viloyatlarda jahonga mashhur tarixiy obidalar, bog'rog'lar bunyod etgan.

Vatanparvarlikning eng muhim belgilaridan biri irodaviy qat'iylikdir. Bu inson hulqidagi o'z qarashlarini ongli va izchil himoya qilishdir. U bolalarni jamiyatga qarshi bo'lgan ta'sirlarga, salbiy shaxs xislatlarga, qaysarlikka berilmaslikda, balki o'zining e'tiqodiga qat'iy amal qilishda namoyon bo'ladi. Qat'iylik, mas'uliyat, mardlik va rostgo'ylikka juda yaqin turadi. Faqat o'z ishining haqligiga ishongan insongina qat'iyatlidir va u har qanday holatda ham o'zligicha qoladi, pastkashlik, razillik qilmaydi, sotqinlikka yuz tutmaydi.

A.Navoiyning fikricha, kishi qat'iyatli bo'lishi hamda maqsadga erishish imkoniyati oldida ikkilanmasligi, haqiqat uchun xormay kurashishi va uni dadil izlashi lozim. Navoiyning bosh qahramonlaridan biri Farhod xuddi mana shunday ahloqiy fazilatlar sohibi edi. U faqatgina dono kishi sifatidagina dong taratib qolmasdan, balki yengib bo'lmas pahlavon bo'lib, qat'iy xarakterga ega edi va u haqiqat uchun sabot-matonat bilan kurashadi. Hisrav bilan Farhod o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javobni eslash kifoyadir. Farhod Hisravning asiri bo'la turib, o'zining izzat-nafsini mardonavor himoya qilibgina qolmay, balki podshohning ahloqiy qashshoqligini dadillik bilan fosh etdi. Insonni ko'p jafolarga duchor qiluvchi, uning kamolotiga to'sqinlik qiladigan salbiy xislatlar kishilarda vatanparvarlik hislarini shakllanishga salbiy ta'sir qiladi. O'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'zida e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatini namoyon qila olgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlarida milliy mansublikdan g'ururlanish, e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatsi yaqqol namoyon bo'ladi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz ... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi ..."

Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat ham o'z Vatanini sevadi, u bilan faxrlanadi, uni har narsadan muqaddas tutadi va yoshlarni Vatanni sevishga, ardoqlashga chorlaydi. U "Sayha" to'plamidagi she'rlaridan birida shunday yozadi:

Vatanni ziyorat qilmoqqa

Erta tongda kel.

Hay-hay qanday Vatan bu!

U mening sajdagohim,

Osoyishim, izzatim, sharafim,

Ham ka'bam, ham qalbim,

Ham chamanimdir

Bu misralar vatanparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, yoshlarda e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatini shakllantirishda alohida qimmatga ega. Muallif Vatanning ravnaq topishi uchun yoshlarni dunyoviy ilmlarni egallashga da'vat etadi, bu yo'lda o'zi fidoyilik namunasi ko'rsatadi.

Fitratning fikricha, har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun u sog'lom fikrli va pok axloqli bo'lmog'i kerak. Har millat o'z kelajagini o'ylar ekan, yoshlarga e'tiborini qaratmog'i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog'i lozim.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li bolalarga atab yozgan asarlarida Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, insoniylik, to'g'rilik, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishga e'tibor bergan. Uning fikricha, Vatanni sevish, uning gullab yashashi uchun mehnat qilish va ulg'ayish zarur. SHu sababli alloma bolalar qalbiga Vatan go'zalligini singdirib, ularni Vatan oldidagi fuqarolik burchini yuksak darajada bajaradigan kishilar qilib kamol toptirishni, Vatan o'z farzandlaridan najot kutib turganligini ta'kidlaydi. Odamlarimizdagi yuksak ma'naviy xislatlar vatanparvarlik qadriyatlarining tub ma'nodagi manbaidir.

Mamlakatimizda mustaqillik uchun kurash bizning eng yaqin istiqbolimizdir. SHu ideallarni tasavvur qilish va har birimiz mana shu burilishning qatnashchisi ekanligimizni anglash zo'r xursandlik hislarini tug'diradi.

Vatanparvarlik qadriyatlaridagi ijtimoiy faollik uning eng muhim xususiyatidir. Vatanparvarlik passiv va ishda ko'rilmaydigan his emas, balki bu his amalda sinaladi.

Xalqlarimiz vatanparvarligi hissi qudratli, hayotbahsh kuchga egadir. Bu his kishilarga hamma qiyinchiliklarni va to'siqlarni o'z yo'llaridan olib tashlab, muttasil olg'a borish uchun kuch va g'ayrat bag'ishlaydi. Vatanparvarlikdagi faollik kishilarning ma'naviy jihatdan boyitadi va oliyjanob tuyg'ularga to'ldiradi, undagi butun ijodiy kuchlarni safarbar qiladi

2.2.KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA E'TIQOD VA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH –IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Muayyan millatning jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqe va o'ringa ega bo'lishi uning ko'p sonli yoki kam sonli bo'lishiga bog'liq emas. Aksincha, o'zida milliy xususiyatlarni namoyon eta olish, millat vakillarining o'z haq-huquqlarini chuqur anglash, o'zga millatlarga ham moddiy va ma'naviy jihatdan qaram bo'lmaslik, mustaqil holda mavjud bo'lishi uning xalqaro maydondagi maqomini belgilab beradi.

Xalqaro munosabatlar borasida o'z qarashlarini dadil bildira olish, millat sha'ni va obro'sini oshirish uchun kurashish, o'zga millatlarda o'ziga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanishining oldini olishga intilish millat nufuzini yanada oshiradi.

Millatning xalqaro maydondagi mavqeini belgilashda, shuningdek, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi taraqqiyparvar g'oyalar, jamiyat hayotining ular negizida yo'lga qo'yilishi ham muhim ahamiyatga ega. SHu sababli O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida jamiyatda milliy istiqlol g'oyasi asoslarini shakllantirish, yosh avlodni ana shu g'oya ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Binobarin, bugungi kunda xalqaro munosabatlarning barqarorlashuvida mustaqil davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaviy qarashlar yetakchi o'rin tutmoqda. Mafkuraviy g'oyalar kurashi, mafkuraviy ta'sirlarning tobora keskinlashuvi mustaqil davlatlar taraqqiyotiga ziyon yetkazishining oldini olish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda. "... Mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerakg'

Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning "Men o'zbek farzandiman" deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Respublika Oliy Majlisining VIII sessiyasida qilgan ma'ruzasida o'n ikki yil davomida jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning samaradorligi yoshlarda Vatan istiqboli va millat, xalqning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni qaror toptirishga xizmat qilishini ta'kidlab shunday deydi: "Biz bugun o'zining kuchi va salohiyatiga ishongan, o'z mehnati, g'ayrat-shijoati bilan xalqaro maydonda obro'-e'tibor qozongan, ertangi kunga g'urur va iftixor, katta ishonch bilan qarayotgan xalqning vakillari, shunday mard va tanti xalqning farzandlarimiz.

Mana shunday olijanob qadriyatlar bilan, tarix oldida, xalqimiz oldida hamisha katta mas'uliyat bilan yashash hammamizning kundalik hayotimiz va ongu shuurimizdan teran joy olishini istardim.

Bizning endigi vazifamiz – mana shu yo'ldan og'ishmay, boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirib, pirovard natijaga yetkazish va “Biz dunyoda hech kimdan kam bo'lmaymiz!” degan shiorni amalda ro'yobga chiqarishdan iborat» .

Kichik maktab yoshidagi bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, kichik maktab yoshidagi bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish ularni vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. SHuningdek, o'zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta'minlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatining psixologik xususiyatlarini yoritishda “rivojlanish”, “ ijtimoiy extiyojlar” “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “omil”, “pedagogik ta'sir”, “milliy g'urur”, “milliy iftixor” va “milliy o'zlikni anglash” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim trabiya ishlarini samarali tashkil etish Tadqiqot bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olishni taqozo etiladi.

«SHakllantirish» va «rivojlantirish» tushunchalarining o'zaro bir-birini o'rnini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko'ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo'lishi g'oyasi ilgari suriladi.

SHaxsni tarbiyalash tarbiya jarayonini tashkil etish chog'ida ro'y berib, shaxsda ma'lum ma'naviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy xususiyatlarini, extiyojlar tizimini, qadriyatlar ierarxiyasini qaror toptiradi. Tarbiya- ijtimoiy hayotning umumiy va muhim kategoriyasi sanaladi. SHu bilan birga ijtimoiy psixologik hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarni avlodlarga yetkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar. Tarbiya jarayonining samarasi maqsadning aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan faoliyatning natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

. SHaxsda ma'lum sifatlarning tarbiyalanganlik darajasini quyidagi shartlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlovchi yondoshuvlar ham mavjud:

- Bola shaxsining alohida ijtimoiy psixologik sifatlarini ajratib ko'rsatish, ularni namoyish etish (N.I.Monaxov, M.I.SHilova);

- bola tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat yo'nalishlari (L.I.Bojovich, A.V.Zasimovskiy);

- ular faoliyati jarayonining mohiyatini o'rganish (O.S.Bogdanov, V.P.Petrova);

- muayyan tasnif (yaxlit jarayon, kundalik yoki yakuniy

SHaxsni shakllantirish jarayoni uni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo'luvchi ijtimoiy hodisadir. Zero, «shakllanish» atamasi e'tiqod ,dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma'lumki, shaxs e'tiqodi va dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, xissiy-irodaviy hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxlitligiga tayangan holda sodir bo'ladi.

Ijtimoiylashuv esa shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi hisoblanadi. J.Piajening ta'rifiga ko'ra, ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni bo'lib, u individning muayyan rivojlanish darajasiga erishib, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish layoqatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. SHaxsning ijtimoiylashuvi jarayonining mohiyatini o'rganishda M.I.Rojkovning quyidagi mazmunni ifoda etuvchi bu boradagi kontseptsiyasi alohida ahamiyatga egadir: ijtimoiy tarkib topishda ijtimoiy amaliyot, ya'ni, individning ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga amaliy kirishishi muhim o'rin tutadi.

Ayrim tadqiqotlarda ma'lum faoliyat yoki jarayonning samarali bo'lishini ta'minlovchi omillarning ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega bo'lishi ta'kidlanadi.

kichik maktab yoshidagi bolalarda vatarparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda quyidagi omillarning ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qildik: (1rasm)

1.Sub'ektiv omillar:

- jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, bola shaxsining o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi;

- Kattalar bilan munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi;

- milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida o'quv tarbiyaviy ishlar mazmunmiga kichik maktab yoshidagi bolalarga xususiyatlariga mos muayyan o'zgartirishlar kiritilishi;

- Ta'lim tarbiya ishlarini tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;

- ijtimoiy munosabatlarda vatanparvarlik ,insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi;

- Kichik maktab yoshidashi bolalarda e'tiqoi va vatnaproiu qadriyatlarini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilikning uzviylikdagi xamkorligini ta'minlashga erishish;

- Bola shaxsi ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish;

-kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;

- Kichik maktab yoshidagi bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi;

P. Ob'ektiv omillar:

- Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;

-Kichik maktab yoshi xususmiyatlariga mos bo'lgan vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan g'oyalar singdirilgan turli kitoblar .o'quv manbalari o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollarning yaratilganligi;

- Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va kompyuter xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi

Bolalarda vatanparvarlik qadriyalarini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Vatanparvarlik qadriyatlarini qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar-oila, o'qituvchi ,tengdoshlari yetakchi o'rin tutadi. SHu bois yuqorida qayd etilgan omillar sirasida sog'lom psixologik muhitning qaror topganligi muximdir etiladi; ikkinchidan, unga ma'naviy qadriyatlar yuzasidan puxta bilim olish, ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik ko'rsatish, ma'naviy rivojlanish uchun keng imkoniyat yaratiladi; uchinchidan, milliy g'urur asosida mustaqil hayotga tayyorlanadi, o'zining tajribasi va ma'naviy faoliyatini takomillashtiradi

KICHIK MAKTAB YoSHIDAGI BOLALARDA VATARPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLARI

(1rasm)

Sub'ektiv omillar	Ob'ektiv omillar
Jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi, Bola shaxsining o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi	Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;
- Kattalar bilan munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi	-Kichik maktab yoshi xususiyatlariga mos bo'lgan vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan g'oyalar singdirilgan turli kitoblar .o'quv manbalari o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollarning yaratilganligi
Milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida o'quv tarbiyaviy ishlar mazmuniga kichik maktab yoshidagi bolalarga xususiyatlariga mos muayyan o'zgartirishlar kiritilishi;	Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va kompyuterxizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi
Xalq qahramonlari, davlat arboblari, bugungi kun qahramonlarining jasorati ibrat obrazi sifatida keltirish ;	San'at asarlari (teatr, kino, musiqa (klassik, lirik va estrada qo'shiqlari), rassomlik (tasviriy san'at, rang-tasvir), haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati (milliy hunarmandchilik: kashtachilik, kulollik, naqqoshlik, ganch o'ymakorligi), me'moriy yodgorliklari, tarixiy qadamjolar
Ijtimoiy munosabatlarda vatanparvarlik ,insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi;	Fan, texnika va texnologiya yutuqlari
Kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparlik qadriyatlarini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilikning uzviylikdagi	Madaniyat, sport va ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari

xamkorligini ta'minlashga erishish	
Bola shaxsi ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish;	Adabiyotlar tarixiy, badiiy; yo'nalishiga ko'ra – xalq og'zaki ijodi (ertak, doston, maqol, afsona, qo'shiqlar), qo'lyozmalar, klassik va zamonaviy asarlar, adabiyotlar va h.o.)
-kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;	Milliy madaniyat
Kichik maktab yoshidagi bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi	Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar

E.Yusupov o'zining «Inson kamolotining ma'naviy asoslari» nomli asarida ma'naviyat, inson ma'naviyati, uning shakllanish bosqichlari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda alohida o'rin tutuvchi omillar, ma'naviyatga erishishning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati, shuningdek, shaxsning psixologik xususiyatlariga tayangan holda uning ma'naviyatini shakllantirish shartlari haqida so'z yuritadi. Ishning e'tiborli jihati vatanparvarlikning ma'naviyati yuksak insonga xos bo'lgan fazilat ekanligiga alohida urg'u beriladi. SHuningdek, «vatanparvarlik» tushunchasi sharhlanadi. Muallifning fikricha, «vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanganlik darajasi bilan bog'liqdir» [23].

M.SHarifxo'jaev "Iftixor" nomli kitobida kelajagi buyuk davlat bilan haqli ravishda faxrlanish qadriyatlari, mustaqillik yillarida respublikada erishilgan yutuqlar

to'g'risidagi qarashlarini ifodalagan [20].. Muallif e'tiqod va vatanparvarlik haqida to'xtalib, o'zbek xalqi tarixini puxta o'rganish, milliy an'analari va urf-odatlarini tiklash, uni hozirgi zamon yutuqlari bilan boyitish zarurligiga urg'u beradi.

B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir" [8] nomli kitoblarida o'quvchi yoshlarda milliy g'yyp va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish, ularni Vatanga fidoyilik, iymon-e'tiqodlilik, ota-bobolar merosi, pand-nasihatlariga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalashga doir o'quv materiallarini taqdim etganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «O'zbekiston - muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg'otish - bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.Nishonova «barkamol inson» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: «barkamol inson – bu o'zligini, o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy yuksak, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin, ijodkor shaxsdir» [14].

Muallif tomonidan sharq mutafakkirlari ilgari surgan ma'naviy-axloqiy qarashlarning komil insonni shakllantirish tarixida tutgan o'rni va bugungi kun uchun ahamiyatining ochib berilishi ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etilishi uchun muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

S.Ochilov qalamiga mansub bo'lgan "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" asarida O'zbekiston mustaqilligi davrida amalga oshirilayotgan islohotlar, ro'y berayotgan tarbiyaviy jarayonlar yoritilgan .

Muallif shu o'rinda quyidagi fikrni ilgari suradi: "Tarbiya berish deganda ... o'yin davomida, uy yumushlari jarayonida, ta'lim va ilm o'rganish vaqtida hayot va turmush saboqlarining siyosiy yo'sinda tushuntirishni, qolaversa, shaxsiy o'rnak ko'rsatish holatini tushunmoq va bilmoq; lozim. SHu omillar bir-biri bilan ko'shib olib borilishi kerak" – deydi .

Uning fikricha, "Inson asosan ikki yo'l bilan tarbiyalanishi lozim: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni, o'rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali inson o'zining fikrlashi, odamlar hatti-harakatida, qilgan va qilayotgan ishlarida tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi - tafakkur vositasida tarbiyalanishi mumkin". Muallif Prezident Islom Karimovning hayoti va ilmiy-ijodiy,

rahbarlik faoliyati va dunyoqarashidagi o'ziga xos milliylik, shaxsi va shaxsiy o'rnakligi, hayot va turmush tajribalarini, zukkoligi va kamtarligi, tadbirkorligi va tashabbuskorligi, hurfikrligi, mardligi va jasurligini pedagogik nuqtai nazardan o'rganish zarurligini aytadi. U o'rganilgan shu namunalar majmuasini yosh avlodga tarbiyaviy yo'llanma va qo'llanma sifatida tavsiya etish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi.

Respublika psixolog olimlar toomnidan ma'naviyat masalasiga doir yaratgan asarlarida milliy qadriyatlar va uning yosh avlodni kamol toptirishdagi o'rni va mohiyati xususida fikrlarini bayon qilganlar.

Tarbiya - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiya yordamida avlodlarning sinalgan, eng ma'qul, taraqqiyparvar tajribasi o'zlashtiriladi va yangi avlodga yetkaziladi, odamlarning ongi, hulqiy kurrinishlariga shu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari singdiriladi, ulrag nisbatan ongli munosabat shakllanadi

Binobarin, o'sib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, barqaror e'tiqodga aylantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Demak, mustaqillikning mohiyatini yanada chuqur, puxta anglash, Vatanni sevish, u bilan faxrlanish, Vatan sharafini himoya qilish uchun bolalar nimalarga e'tibor berishi kerakligini ta'lim-tarbiya jarayonida ular ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko'rib chiqilgan manbalar mazmunidan shu narsa ayon bo'ldiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini yoritib berish psixologiya fanida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammodir.

Psixologik adabiyotlarda vatnparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda «g'urur» va «iftixor» tushunchalari, o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi. Zero, shaxs g'ururi – bu muayyan shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy mavqei (masalan, ma'lum millat vakili sifatidagi mavqei), shaxsiy xususiyatlar, turmush tarzi, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat, erishilgan muvaffaqiyatlardan qoniqish hosil qilish sanaladi. Milliy g'urur qadriyatlariga egalik ma'lum millatga mansub shaxsning ana shu millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqei, insoniyat taraqqiyoti va tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, faxrlanish va qoniqish demakdir.

Vatanparvarlik – bu muayyan millatga mansublik va bu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan millatga sadoqatli bo'lish hissini tuyish va bu yo'lda amaliy faoliyat ko'rsatishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirish masalasi bo'yicha izlanish olib borgan Z.Qurbaniyazova «milliy o'zlikni anglash» qadriyatlarining mohiyatini yoritish bilan birga bu qadriyatning tarkibiy qismlari to'g'risida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Milliy o'zlikni anglash – bu barcha insoniy fazilatlarining ibtidosi bo'lib, xalqimiz tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an'analari, qadriyatlari, ruhiyati haqida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar birligiga erishish, ularni ongli ravishda baholash, ma'naviy his-qadriyatlarining ijobiy bo'lishiga erishish, o'zini ongli ravishda boshqarish, Vatan qadriyatlari bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish; ona tilini e'zozlash va boshqa millatlarga hurmat ila munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirish majmuidir» Demak, milliy o'zlikni anglash qadriyatlari negizida quyidagi fazilatlar ko'zga tashlanadi:

- 1) xalqining tarixiy xotirasiga hurmat;
- 2) millatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an'analari, qadriyatlari, ruhiyati haqidagi mustahkam bilimlarga ega bo'lish;
- 3) xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotini yanada rivojlantirish, milliy meros, urf-odat va an'analari, qadriyatlarni asrab-avaylash, uni boyitish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish;
- 4) ularni ongli ravishda baholash;
- 5) ma'naviy his-qadriyatlarining ijobiy bo'lishiga erishish;
- 6) o'zini ongli ravishda boshqarish;
- 7) Vatan qadriyatlari bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish;
- 8) ona tilini e'zozlash;
- 9) boshqa millatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish.

Bu tasnifga tayangan holda «milliy iftixor» qadriyatlariga egalik asosida aks etuvchi fazilatlar majmuini belgilashga urindik. Bizning nazarimizda bu tasnif quyidagicha:

- 1) xalq tarixidan to'la xabardorlik, millatning o'tmishi, tarixiga bo'lgan hurmat;
- 2) uning shonli sahifalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shiddatli tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish;
- 3) millatga xos bo'lgan ijtimoiy ruhiyat, uning ijobiy ko'rinishlari va milliy turmush tarzining o'ziga xosligidan faxrlanish;
- 4) milliy madaniyatning jahon xalqlari tsivilizatsiyasiga qo'shilgan hissa ekanligini anglash;
- 5) milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining mazmunini chuqur anglagan holda ularni asrash va yanada boyitish yo'lidagi harakatni tashkil etish;

- 6) ona tilining millat nishoni, g'ururi ekanligini his qilish;
- 7) millat erki va Vatan mustaqilligi uchun kurashish, tinchlikni ta'minlash bebaho milliy qadriyat ekanligini anglash.

Xalq tarixidan to'la xabardor bo'lish bolalarga milliy mansublik, millatning o'tmishi, tarixining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Zero, o'z xalqi tarixini anglamagan inson o'zining jamiyatdagi o'rni, turli millatlar orasidagi mavqeini belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o'zi qaror qabul qila olmaydi. SHu bois u qaramlik, mute'lik va qullikka mahkum bo'ladi.

Millatning shonli sahifalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shiddatli tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish insonda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, irdaviy xususiyatlarni shakllanishi va namoyon bo'lishi tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o'ta qiyin vaziyatlarda ham mantiqiy fikrlash asosida vaziyatdan chiqqa olish uchun harakat qilishiga turtki beradi.

Millatga xos ijtimoiy ruhiyat uning buguni va ertangi kunining mazmunini yaratishga xizmat qiladi. Milliy ruhiyat o'z navbatida ijtimoiy turmush tarzining shakllanishi uchun asosdir. Bu o'rinda millat ruhiyatiga xos ijobiy jihatlarni ajrata olish, ularni takomillashtirish, shu bilan birga salbiy holatlarni bartaraf etish millatning har tomonlama taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Milliy madaniyat -millat tarixining mahsuldorligini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Turli milliy madaniyatlar asosida jahon tsivilizatsiyasi ta'minlanadi. Bir millatning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi u tomonidan yaratilgan madaniyat bilan belgilanadi. Millatning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, milliy madaniyat asoslaridan xabardorlik insonda o'ziga xos g'urur, iftixorni yuzaga keltiradi.

Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalar inson ruhiyatining shakllanishi, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliylikni belgilovchi omillardan biri urf-odat, an'ana va qadriyatlardir. SHu sababli inson ham millat vakillaridan biri sifatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni yanada boyitish to'g'risida qayg'urishi zarur. O'z navbatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar g'oyalarining millat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan faxrlanish bolalarning e'tiqod va vatanparvarliq qadriyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda bolalarni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinflarda kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish va

ularning rolini oshirish, ana shu maqsadda ommaviy axborot vositalari bilan keng jamoatchilik o'rtasida ijodiy hamkorlikka erishish, ularning faoliyatiga jamoatchilik bahosini berish tizimini ishlab chiqish va bu tizimning to'laqonli ishlashini ta'minlashga erishish.

4. Bosh g'oyasi maishiy muammolardangina iborat bo'lib, g'oyaviy saviyasi va ijro mahorati past bo'lgan musiqa va kino san'ati namunalarining ommaviy axborot vositalari sahifalaridan o'rin olishiga nisbatan jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, shu bilan birga gazeta va jurnallarda imkoni boricha ko'proq ijtimoiy ong va shaxs dunyoqarashini boyitish, bolalarda fikrlash layoqatini shakllantirish, maishiy biqlikdan xoli bo'lish orqali ijtimoiy faollikni qaror toptirishga oid maqolalarning chop etilishini ta'minlash.


5. Ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan zamona qahramonlarini bolalarga tanishtirishga alohida e'tibor qaratish va bu yo'lda faollik ko'rsatish.

6. Bolalarda shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaaatidan yuqori qo'yimaslik, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to'laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishga intilishlari erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish.

7. Bolalar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi qiziqarli tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasini qayta tiklash.

8 Kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish (2-rasm).

2- rasm Kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvrlk qadriyatlarini shakllantirish jarayoni



2.3. MILLIY O'Z-O'ZINI ANGLASH- KICHIK MAKTAB YoSHIDAGI BOLALARDA VATANAPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANISHINING MURAKKAB MAJMUUI SIFATIDA

Mustaqilligimizga munosib, jahon tanigan ajdodlarimizga loyiq, sobitqadam, ma'naviyati yuksak barkamol insonni tarbiyalash jarayonida jamiyat rivojlanishiga monand o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglash va ularga mos keladigan chora-tadbirlarni aniq belgilash katta ahamiyatga egadir. Chunki, mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari barkamol shaxs kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar uning o'zligini anglab borishi va o'z ustida chuqur ishlagan tarzda Vatan ravnaqi hamda yurt taraqqiyoti uchun sidqidildan mehnat qilish maqsadida butun imkoniyatlarini, aqlini safarbar etishga undaydi. Islohotlar va ularning tom ma'nodagi mohiyatini esa birinchi navbatda yoshlarning ilg'or vakillari bo'lmish bolalar anglaydilar. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, qalbida Vatanga muhabbat, uning kelajagiga ishonch, e'tiqod va vatanparvarliq qadriyatlarini jo'sh urgan mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning eng samarali usullarini amaliyotga joriy etish hamda shu orqali millatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi milliy istiqbol g'oyasini ongga singdirishga oid muhim qonuniyatlarni bilish maqsadga muvofiqdir. "Bu xayrli ish eng avvalo, har bir inson ongiga yon-atrofdagilar bilan bo'ladigan muomalada eng ilg'or va Vatan mustaqilligiga xizmat qiluvchi fikr-g'oyalarni teran tahlil etish va ongli faoliyatida ularga amal qilishga xizmat qiladi", - deb ta'kidlaydi psixologiya fanlari doktori , professor V.Karimova.

Prezident I.A.Karimov bu ishlarning samarasini: "...avvalambor, yoshlarimizning imon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash" [4]da ko'radi.

O'tgan asrning yetmishinchi yillaridagina milliy qadriyat va uning mohiyati jiddiy o'rganila boshlandi. Masalan, N.Jandil'din milliy psixologiya mohiyatini tahlil etar ekan, milliy qadriyat va uning psixologik xususiyatlarini yoritishga urindi. Uning fikricha, "Milliy qadriyat nafaqat o'z xalqi, balki boshqa millatlarning insoniyat turmush tarzining o'zgarishi bilan rivojlanadigan inson ruhiyatining o'ziga xos ko'rinishlarining murakkab majmuidir. Bu o'zgarishlar xalqning taqdiri, g'ururi va iftixoriga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi, uning tarixdagi o'rni va boshqa millatlar bilan munosabatlarida aks etadi" [28].

N.Jandil'din milliy qadriyatlarning ijtimoiy determinizm, ya'ni, tabiat, jamiyat hodisalari hamda inson irodasi, hulq-atvori qonuniyatlarining o'zaro ta'siri,

aloqadorligini to'g'ri ko'rsatadi. Zero, o'zligini anglay olgan millatgina o'zga millatlarning urf-odatlari, an'analari, e'tiqodi, turmush tarzi va dunyoqarashini tabiiy qabul qiladi.

Vatanparvarlik qadriyatlari milliy mansublikni ifoda etishga xizmat qiladi. Manbalarda milliy qadriyat, milliy mansublik milliy o'z-o'zini anglashdan hosil bo'lishi, uning negizida o'z millati, an'analari, urf-odatlari, madaniyati, turmush tarzi, milliy-ma'naviy qadriyatlarga mustahkam bog'langanlik aks etishi, umumiy maydonga egalik qiladigan, bir xil hayot kechiradigan, bir tilda so'zlashadigan insonlarning etnik birligi negizida shakllanishiga urg'u beriladi.

Milliy qadriyat, g'urur va iftixor qadriyatlari Vatanni sevish, milliy madaniyatni anglashdagi quvonch, milliy rivojlanish va xalq manfaati uchun xizmat qiladigan siyosiy harakatlar va g'oyalarning haqqoniyligini anglab yetish kabi qadriyatlar negizida shakllanadi.

Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishiga asos bo'luvchi omil milliy o'z-o'zini anglashdir. Milliy o'z-o'zini anglash millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosini to'g'ri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglay olish, ijobiy milliy-mental xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo'lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo'lib yashash, o'ta andishalilik, qat'iyatning yetishmasligi)ni ko'ra olish, milliy madaniyatning jahon tsivilizatsiyasidagi o'rnini yetarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo'lmaslik, uning istiqloli va istiqboli uchun kurashish demakdir.

Milliy qadriyat sub'ektning ob'ektga bo'lgan muhim munosabati aks etadi. SHaxsning his-tuyg'ulari psixofiziologik tabiatga ega, ijtimoiy psixologiyaning nodir hodisasi bo'lgan milliy qadriyat sub'ektga xos individual his-qadriyatlar ta'sirida shakllanadi. Vatanparvarlik qadriyatlari negizida kuyunchaklik, millat farzandi bo'lganlikdan faxrlanish, odamlarga nisbatan mehr-muhabbat, o'zaro g'amxo'rlik, rahm-shafqat, o'zgalar manfaatini o'z manfaatini ustun qo'yish, bag'rikenglik, Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslik, millat tarixidagi fojealardan qayg'urish, olijanoblik, fidoiylilik, vatanparvarlik, baynalmilallik, mehnatsevarlik, hayratlanish, shonli tarix hamda milliy qahramonlardan faxrlanish qadriyatlar ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e'tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, e'tiqod va vatanparvarliq qadriyatlarini singdirishda "pedagog-o'quvchi", "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish

bevosita bola-yoshlarga bog'liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta'minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o'zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e'tibor qaratish lozim.

SHu o'rinda, kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda zo'rlash, majburlash usullaridan qochish lozimligini qayta-qayta uqtirish lozim, deb o'ylaymiz. Jahon adabiyotida munosib o'rin egallagan frantsuz yozuvchisi Anatol' Frans: "Tazyiq ostida berilgan bilim, aqlni bug'adi", -degan edi.

Xar bir inson bolalik chog'ida ertaklar, afsonalar eshitib katta bo'lgan. Ma'lumki, bolalar uchun yaratilgan har qanday asar, o'zining mazmuni, tushunarligi, qiziqarliligi, bola yoshiga mosligi bilan juda ahamiyatlidir. Bolalar adabiyoti janr jihatidan hilma – hil bo'lib, bolaning dunyoqarashi, tasavvurini kengayotirishda, ijobiy va salbiy jixatlarni ajrata bilishda ertak janri alohida o'rin tutadi.

Xalq ertaklari bolalarni qo'rqmas, mard va jasur, oliyjanob inson, yaxshi do'st bo'lishga, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishga o'rgatadi. Maktab yoshidagi bolalar uchun aytiladigan ertaklar mazmuni sodda, hajmi kichik bo'ladi. CHunki bu yoshdagi bolalar tasavvuridan tashqaridagi fikrlarni idrok etishga qiynaladi. Ular hayovonlar o'rtasidagi ahillik, do'stlik kabi hislatlarni bilishni istaydi. SHuning uchun ularga "SHolg'om", "Tulki bilan turna", "Maqtanchoq quyon" kabi ertaklarni o'qib berish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tavsiya etiladigan ertaklar, o'ziga hos xususiyatlarga egadir. Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ertak o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. SHu sababli ularga mustaqil o'qish uchun ertaklar berish va uni sinfda o'qituvchilar bilan tahlil qilish lozim. CHunki ertakdagi voqea – hodisalar, fikr va mulohazalar orqali iloji boricha bolaning dunyoqarashi, fikrlarini bilish mumkin. Bolaning ertak haqidagi fikrini baxs – munozara orqali bilib olish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "bo'ri bilan tulki", "Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklarni o'qish tavsiya etiladi. O'smir yoshidagi bolalar uchun esa dovyuraklik, vatanparvarlik, biror kasb egasi bo'lish, vatan, xalqqa munosib farzand bo'lish kabi hislatlarni shakllantirishda ertaklarning o'ri alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga ertak aytib berayotganda, taxlil qilinganda timollarga, qahramonlarga, voqealarga izoh berish kerak. Masalan: sheʼrni kuchlligi uchun "O'rmon podshosi" deb atao'adi. Bilimdonlik ramzi sifatida esa ilonlar ko'rsatiladi. SHoshma – shosharlik, qo'rqqoqlik xususiyatlari quyonlar orqali, bosiqlik fillar, ayyorlik tulkilar timsolida ifodalanishini o'quvchilarga tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining bolalarga yetkazadigan ma'lumotlari mazmuni va uni didaktik nuqtai nazardan qanday berilishi ham muhim ahamiyat kasb etishi pedagogikaga ayon.

Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi materialning shakli:

- kitoblarda bayon etilgan bo'lishi;
- matnga oid maxsus ko'rgazmali qurollar tayyorlangan bo'lishi mumkin.

Bular ko'pchilikka manfaatli ma'lumotlar qo'ldan-qo'lga o'tib, o'z auditoriyasini kengaytirishi qulay bo'ladi; o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kitobiy matnlar yoki e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali qurollar qayta-qayta o'qilishi, hattoki yod olinishi mumkin bo'ladi; kitobiy tilda yozilgan biror matn murakkabroq, tushunarsiz bo'lsa, professor-o'qituvchi tomonidan, detallashtirilib tushuntirilib beriladi; yozma ma'lumotni tinglovchining o'zi alohida ham qiroat qilishi imkoniyati bo'ladi va hokazo.

Dars va darsdan tashqari vaqtlarda bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda pedagogik jihatdan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat – qanday vositalar yordamida berilayotgan ma'lumotni yetkazish masalasidir. Kitoblar, tayyor ko'rgazmali qurollardan tashqari hozirgi kunda audio-video vositalar, multimedialar, videoslaydlar, masofali o'qitish, elektron versiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bizningcha, qo'yilgan maqsadga erishishda audio-vizual idrok etish vositalaridan o'rinli va unumli foydalanish yaxshi samara beradi.

Bolalar ongiga vatanparvarlik qadriyatlarini singdirish masalasi millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o'zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas'uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo'lmas vazifalari bilan bog'liq.

Masalan, Yaponiyada bolalar xalq tarixi, adabiyoti, madaniyati, musiqasi, o'ymakorlik san'atiga doir har qanday savolga bemaol javob qaytara olar ekanlar. CHunki shu sohalar boshlang'ich maktabdanoq boshqa predmetlar qatori o'qitilar ekan. Bolalar yoshlik paytidan e'tiboran o'z xalqi tarixiga aloqador narsalarni ko'proq bilishlari kerak. SHunda ular boshqa xalqlar tarixini ham oson o'zlashtiradi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun bo'yicha kichik maktab yoshi 6-7,10-11yosh davri deb belgilanadi ..

Aynan shu davr, biz maqsad qilib olgan vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishda juda muxim moyil va qulay fursat hisoblanadi, aynan shu davrda ma'lum bir tizim asosida ishlansa, yaxshi natijalarga erishish mumkin, deb o'ylaymiz.

Bola ongiga biror bir g'oyani singdirishda ideallar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchisini kimning o'rnida ko'rishni xohlasa, uni tarbiyalanuvchi ko'zida ideal darajasiga yetqaza olishi kerak bo'ladi. Masalan, bolaning ideali uning otasi, u otasiday uchuvchi bo'lmoqchi, u yaqin orada bu maqsadga erishib bilmaydi, lekin unga intiladi, o'zida otasida bor xislatlarni takrorlashga harakat qiladi.

Yana bir muhim jihat bolaning qiziqishlarini inobatga olgan holda, uning dunyoqarashini va e'tiqodini shakllantirish masalasi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional byozagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yunalishidir.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi aniqlanadi, birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bevosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida atrofda yangi o'zgarishlar, isloxlarga nisbatan nisbatan bevosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qilishi kerak. qiziqishlar orqali o'quvchilarda ushbu o'zgarishlarga nisbatan aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki Hodisalarga munosabatidir. qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib Hisoblanadi. qiziqishlar o'quvchilar Vataparlik qadriyatlarini shakllanishida qiziqishlar katta rol uynaydi.

Bizning holatimizda, agar bolalarimizda Vatanga mehr, ota-bobolarimizga hurmat, yurtimiz kelajagiga ishonch xislatlari, isloxtlar va o'zgarishlarga nisbatan qiziiqsh va qaol munosabailarni shakllantira olsak e'tiqod darajasiga chiqarishga erishsak, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish, degan buyuk maqsadimizga erishgan bo'lamiz. SHaxsdagi e'tiqodlilik ham,vatanparvarlik qadriyatlari ham – insondagi jur'at, fidoiylilik, halollik, iroda, vijdon, qat'iyatlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi qator ijobiy sifatlar bilan bog'liqdir.

III BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI SHAXSI VA PEDAGOGIK MAXORATNING AXAMIYATI

3.1 KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI SHAXSIGA TALABLAR

Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, bu ish bevosita tarbiyachilarimiz o'qituvchilardan o'ta yuksak pedagogik mahoratni, pedagogik etika va insoniy madaniyatni talab qiladi

Biz bolalarda e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari va mas'ullari hisoblanuvchi pedagoglarning qanday xislatlarga ega bo'lishi muhimligini o'rganib chiqdik:

Birinchidan, o'qituvchi o'zi yashayotgan jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishi, boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'lishi, bolalar buni ko'rib, unga havas qilib, unga intilishlari lozim bo'ladi. Agar o'qituvchi ma'naviy qoloq, janjalkash yoki darslarga kechikib kelsa, ta'magirlik qilsa, bunday o'qituvchi auditoriyada hech qanday natijaga erisha olmaydi.

Ikkinchidan, bugungi kunda bilimdon pedagogning o'z mustaqil fikri bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi bola aynan shu betakror fikrlash sharoitidagina erkin fikr yuritishga, o'zi mustaqil mushohada yuritib davr yangiliklarini anglashga, o'z yuragini qo'rqqmasdan ochib, tushunmaganini so'rab olishga o'rganadi. Bu esa o'zicha tahlil qilib anglagan ma'lumotining xotirada yaxshi saqlanishiga va boshqalarga tashviqot-targ'ibot qila olishida yaxshi ko'mak beradi.

Uchinchidan, o'qituvchilarimiz o'zi yashayotgan jamiyatda bilimi, yangiliklarni tez anglaganligi, millatimiz tarixi va madaniyatini chuqur bilishi, vatanparvarligi bilan ajralib turishi kerak. Soddaroq qilib aytganda, pedagog o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari orasida ma'naviy savodxonligi bilan ajralib turishi kerak bo'ladi.

To'rtinchidan, pedagogning o'zi milliy istiqlol g'oyasini, millatimizning buyukligini, bebaho milliy madaniyatimiz va davlatchiligimizning tarixini mukammal va teran bilishi, O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonishi kerak bo'ladi. E'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini bolalar ongiga singdirishga qo'l urgan tarbiyachining fikrlari sayoz, ishonchsiz bo'lsa, zamonaviy topqir bola buni tez anglab yetadi va unga ishonmaydi, mehnatlar zoe ketadi.

Beshinchidan, zamonaviy tarbiyachi-pedagog darsga yangicha o'qitish texnologiyalarini olib kirishi, bolalarga e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatlarini singdirishda noan'anaviy usullardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oltinchidan, pedagogdan har qanday dars o'tishda yaxshi natijalarga erishishining bosh omillaridan biri – bolalar bilan til topishish va sog'lom muhitni yarata olishlik talab etiladi. Vatan, yurt ravnaqini o'zi o'qitayotgan fani bilan bog'lab, bolalarda millat kejasida mas'uliyat hissini tarbiyalashga erishishi kerak bo'ladi. Chunki, hozirgi zamon bolasi ko'plab ma'lumotlarga, shart-sharoitlarga va imkoniyatlarga ega, ular bilan ishlash, talab-takliflarini chuqur o'rganib muomala qilish, til topish olish pedagogikada yaxshi natijalarga erishishga olib keladi.

Psixologiyada e'tiqod tushunchasi bilan bevosita bog'liq imon so'zi borki, uning lug'aviy ma'nosi "ishonch"dir. "Vatanni sevmok - imondandir",- deyiladi hadislarda. Vatanfurushlarni, ota-onaga qo'l ko'taradiganlarni "imonsizlar" deb ataladi xalq orasida. Tug'ilib o'sgan yerni muqaddas bilish, kindik qoni to'kilgan tuproqni sevish, yurtni sog'inish, Vatan uchun vijdonan mehnat qilish – imonlilik belgisidir.

Imon, e'tiqod va qiziqishlar insonda dunyoqarashni shakllantiradi. Bizning holatimizda bolaning dunyoqarashi – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u tarbiyalanuvchini o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'zi tanlagan yo'liga, kasbiga, e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. SHu xislatlarni, dunyoqarashni tarbiyalashning zamirida esa e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatlarini shakllantirish yotadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda har bir o'qituvchi quyidagi shartlarni e'tiborga olishi lozim:

- bilim egallashga ehtiyojni sezish va o'z bilimi va qobiliyatini namoyon qila olish ko'nikmasiga egalik bo'lishi;
- o'ziga nisbatan talabchan, xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf eta olish;
- vatanparvarlik sifatlariga ega bo'lish; mehribonlik, g'ururli bo'lish;
- Zo'rlash , majburlash usullaridan voz kechish

Sanab o'tilgan sifatlarni o'quvchi ongiga singdirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur:

- o'quvchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishni ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog'lab olib borish;
- o'quvchilarni ijtimoiy yo'naltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

- ijtimoiy onglik ijtimoiy hayot vaziyatlaridan to'g'ri yo'l topib chiqa olish ma'naviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;
- Bolaning qiziqishlari e'tiborga olish

SHuni ta'kidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy vaziyatlarning keskinlashayotgan bir sharoitida o'quvchi yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, bu ish bevosita tarbiyachilarimiz – o'qituvchilardan o'ta yuksak pedagogik mahoratni, pedagogik etika va insoniy madaniyatni talab etadi. Bugungi o'quvchi oldiga kiradigan o'qituvchi-pedagog o'z qarashlari, faniga munosabati, o'zbeklar tarixi va madaniyatini chuqur bilishi va e'tiqodi bilan bola shaxsiga ta'sir etish mas'uliyatini unutmasligi kerak.

Biz bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari va mas'ullari hisoblanuvchi pedagoglarning qanday xislatlarga ega bo'lishi muhimligini o'rganib chiqdik:

Birinchidan, o'qituvchi o'zi yashayotgan jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishi, boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'lishi, bolalar buni ko'rib, unga havas qilib, unga intilishlari lozim bo'ladi. Agar o'qituvchi ma'naviy qoloq, janjalkash yoki darslarga kechikib kelsa, ta'magirlik qilsa, bunday o'qituvchi auditoriyada hech qanday natijaga erisha olmaydi.

Ikkinchidan, bugungi kunda pedagogning o'z mustaqil fikri bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi o'quvchi aynan shu betakror fikrlash sharoitidagina erkin fikr yuritishga, o'zi mustaqil mushohada yuritib davr yangiliklarini anglashga, o'z yuragini qo'rqqmasdan ochib, tushunmaganini so'rab olishga o'rganadi. Bu esa o'zicha tahlil qilib anglagan ma'lumotining xotirada yaxshi saqlanishiga va boshqalarga tashviqot-targ'ibot qila olishida yaxshi ko'mak beradi.

Uchinchidan, o'qituvchilarimiz o'zi yashayotgan jamiyatda bilimi, yangiliklarni tez anglaganligi, millatimiz tarixi va madaniyatini chuqur bilishi, vatanparvarligi bilan ajralib turishi kerak. Soddaroq qilib aytganda, pedagog o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari orasida ma'naviy savodxonligi bilan ajralib turishi kerak bo'ladi.

To'rtinchidan, pedagogning o'zi milliy istiqlol g'oyasini, millatimizning buyukligini, bebaho milliy madaniyatimiz va davlatchiligimizning tarixini mukammal va teran bilishi, O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonishi kerak bo'ladi. E'tiqod va vatanparvarliq qadriyatini o'quvchilar ongiga singdirishga qo'l urgan tarbiyachining fikrlari sayoz, ishonchsiz bo'lsa, zamonaviy topqir o'quvchi buni tez anglab yetadi va unga ishonmaydi, mehnatlar zoe ketadi.

Beshinchidan, zamonaviy tarbiyachi-pedagog darsga yangicha o'qitish texnologiyalarini olib kirishi, o'quvchilarga e'tiqod va vatanparvarlikqadriyatini singdirishda noan'anaviy usullardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oltinchidan, pedagogdan har qanday dars o'tishda yaxshi natijalarga erishishining bosh omillaridan biri – bolalar jamoasi bilan til topishish va sog'lom muhitni yarata olishlik talab etiladi. Vatan, yurt ravnaqini o'zi o'qitayotgan fani bilan bog'lab, bolalarda millat kejasida mas'uliyat hissini tarbiyalashga erishishi kerak bo'ladi. Chunki, hozirgi zamon o'quvchisi ko'plab ma'lumotlarga, shart-sharoitlarga va imkoniyatlarga ega, ular bilan ishlash, talab-takliflarini chuqur o'rganib muomala qilish, til topish olish pedagogikada yaxshi natijalarga erishishga olib keladi.

3.2 TADQIQOT MUAMMOSINI NAZARIY VA AMALIY JIHATDAN O'RGANILISHI

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish kichik maktab yoshidagi bolalarining aksariyati o'zlarida milliy g'urur, e'tiqod va vatanparvarlikva milliy o'zlikni anglash qadriyatlarining shakllanishi borasida yetralicha axborotga ega emaslar yoki bu kabi sifatlarning past darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish chog'ida bu holatning sababi o'rganildi. O'qituvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular bilan o'tkazilgan suhbatlar, bahs-munozaralar, so'rovlar natijalari mazkur sabablarni aniqlashga yordam berdi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini, milliy g'urur, va o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllanganligining mavjud darajasini o'rganish maqsadida o'qituvchilarning e'tiboriga anketa so'rovlari savollarini havola etdik. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan anketa so'rovining mazmunidan quyidagi savollar o'rin oldi:

O'qituvchilar uchun

1. “Vatanparvarlik” tushunchasi Siz uchun qanday ma'noni anglatadig'
2. SHaxsan Siz o'zingizda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllangan deya olasizmig'
3. Sizning fikringizcha, bola shaxsda vatanparvarlik qadriyatlarini qanday sharoitda va qaysi omillar asosida shakllanadig'
4. Sizning nazaringizda, kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'urur, e'tiqod va vatanparvarlikva o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishda o'quv fanlari muayyan imkoniyatlarga egamig'
5. Siz qanday fikrdasiz: sinfdan tashqari sharoitda qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar kichik maktab yoshidagi bolalarda

vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladig'

6. Bola shaxsida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning ahamiyatini qanday baxolaysizg' Misollar keltiring.

7. SHaxsan Siz bola shaxsida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati beqiyos ekanligiga ishonasizmig' Fikringizni misollar orqali ifodalang.

8. Bola shaxsida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oila hamda oilaviy an'analarning o'rni qandayg'

9. Siz qanday fikrdasiz, shaxsda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi o'zga millat vakillarining manfaatlariga ziyon yetkazadimig'

10. O'qitishda yangi innovatsion metodlarni qo'llnilishi vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi

E'tiborlariga havola etilgan anketa so'roviga javob qaytarar ekanlar, o'qituvchilarning aksariyati «milliy g'yyp»; «milliy iftixor» hamda «milliy o'zlikni anglash» tushunchalari ularga xalq qahramonlari, mutafakkirlar hamda davlat arboblari va ular tomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmuni bilan tanishish imkoniyatini yaratishini qayd etib o'tadilar.

Mazkur javob tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan respondentlarda tomonidan birdek ifoda etilgan. Juda oz sonli respondentlar o'z javoblarida milliy g'yyp hamda milliy o'zlikni anglash tushunchalarini sharhlashga uringanlar.

Yuqorida keltirilgan javoblar mohiyatidan anglanadiki, o'qituvchilar birinchi savol mohiyati ochib berilishi talab etilgan ikki tushunchaning ham mazmunini to'la anglamaydilar. SHu bois, yuqoridagi kabi javoblar qaytarilgan.

Anketa savolnomasi tarkibidan o'rin olgan ikkinchi savolga javob qaytarar ekanlar, respondentlarning aksariyat qismi o'zlarida vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllanganligini ta'kidlab o'tadilar.

Navbatdagi uchinchi savol yuzasidan javob qaytarar ekanlar, respondentlar quyidagi mazmundagi fikrlarni ko'rsatib o'tadilar: «Mening fikrimcha, vatanparvarlik qadriyatlarini o'quv muassasalarida ta'lim olish sharoitida hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali shakllantiriladi».

Javob mazmunidan anglanadiki, respondentlar yuqorida qayd etilgan qadriyatlar tor doirada emas, balki keng ko'lamdagi ijtimoiy muhit ta'siri, shuningdek, juda ko'plab omillar yordamida shakllanishi borasidagi tushunchalarga ega emaslar..

Faqatgina 23 nafar respondent vatanparvarlik qadriyatlarini xalq merosi manbalarini o'qib o'rganish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, xalq qahramonlari, ulug' mutafakkirlar hamda

davlat arboblari tomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmunini tahlil etish asosida shakllanishiga ypg'y berib o'tadilar.

«Sizning nazaringizda, kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini o'quv fanlari muayyan imkoniyatlarga egamig'» mazmunidagi savolga javob qaytarish chog'ida respondentlar «Odobnoma», «O'qish», va «Ma'naviyat asoslari» kabi o'quv fanlarining katta imkoniyatlarga tayangan holda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab o'tadilar.

Anketa savollari mazmunidan o'rin olgan beshinchi savolga nisbatan munosabat bildirishda quyidagi fikrni ilgari surishgan: sinfdan tashqari sharoitda tashkil etiladigan hamda ma'naviy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarning aksariyati kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini, o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Masalan, «Farzand kamoli - yurt jamoli», «Assalom, Navro'z!», «Istiqlolning shonli yillari», «Mardlar quriqlaydi Vatanni», «Xosil bayrami» "Alifbe bayrami" «Otalar kuni» kabi mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bolalar ajdodlarimiz merosi, tarixiy va me'moriy obidalar bilan yaqindan tanishadilar. SHuningdek bolalarning O'zbekiston tabiatini va alohida muhofaza qilinuvchi milliy bog'lar, qo'riqxonalar, tabiat boyliklari, sirlari va yodgorliklarini o'rganishi maqsadida turli ekskursiyalar tashkil etilishi ham vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.

O'qituvchilarning barchasi sinfdan tashqari sharoitda tashkil etiladigan va ma'naviy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan tadbirlarning bolalar ma'naviyatini shakllantirish, ularda yuksak darajadagi insoniy xislatlar, xususan, vatanparvarlik qadriyatlarini va milliy o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishdagi imkoniyatlari cheksiz ekanligini alohida qayd etib o'tganlar.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoniga jalb etilgan o'qituvchilarning aksariyat qismi to'la ishonch bilan kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni va ularda ilgari surilgan g'oyalarning ahamiyati beqiyos ekanligini qayd etganlari holda, bu borada katta imkoniyatga ega bo'lgan badiiy asarlardan namunalar keltirishda faollik ko'rsatmaganlar. Lekin 12 o'qituvchi bolalar uchun ertaklardan misollar keltirganlar.

23 nafar nafar o'qituvchi tomonidan qaytarilgan javoblarda ana shunday ta'sir kuchiga ega bo'lgan bir qator badiiy adabiyotlarning nomlari keltirilgan. Bunday adabiyotlar Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Amir Temurning «Temur tuzuklari» kabi nasriy hamda H.Olimjonning «O'zbekiston», A.Oripovning «O'zbekiston» va «Men nechun sevaman O'zbekistonni», E.Vohidovning «O'zbekim» «O'zbekistonim», M.Yusufning «Xalqim»,

«Hech kimga bermaymiz, seni O'zbekiston!» kabi she'riy asarlarning nomlarini alohida ko'rsatib o'tganlar.

Bola shaxsida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish borasida ommaviy axborot vositalarining ham ahamiyati katta ekanligini e'tirof etish asosida o'qituvchilar savolnoma tarkibidan o'rin olgan yettinchi savolga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar. Ularning javoblarida davriy nashrlarda tarixiy mavzularda yaratilgan maqolalarning chop etilishi, radio va televidenie orqali namoyish etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy eshittirish va ko'rsatuvlarning kichik maktab yoshi xususiyatlariga mas bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar, vatnparlik qadriyatlarining shakllanishidagi o'rnini yuqori darajada baholaganlar.

Biroq fikrlarini misollar asosida bayon etishda bir oz qiyinchiliklarga duch kelganlar. Aksariyat javoblarda radio va televideniening bu boradagi o'rni asosan ko'ngil ochar mazmundagi eshittirish va ko'rsatuvlarning namoyish etilishi bilan bog'liq holda ochib beriladi. Ammo bolalar bevosita shaxsda vatnparlik qadriyatlarini shakllanishga xizmat qiluvchi eshittirish va ko'rsatuvlarni misol tariqasida keltira olmaganlar («Javohir», «Adabiy meros», «Qishloq haqida o'ylar», «Bir o'lkaki...», «Qishloqdagi tengdoshim», «Oltin meros», «Qo'li gul usta», «Siyrat», «CHempion sirlari», «Ohangrabo», «Xotira»)

Sakkizinchi savol yuzasidan respondent-bolalar oila muhiti va unda qaror topgan an'analarining bola shaxsi ma'naviyati, xususan, vatnparlik qadriyatlarining shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etishiga ypg'y berib o'tganlar. Ushbu savol borasida bildirgan fikr-mulohazalari bir qadar to'la ifodalangan bo'lib, unda bolalar oila sulolasining tarkib topishini ifoda etuvchi shajara, shuningdek, oila a'zolarining kasbiy faoliyati borasidagi an'analar farzandlar kamolotini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatib o'tganlar. SHu bois, oilaviy shajaraning mohiyatidan xabardor bo'lish va oila an'alarini davom ettirishni o'zlarining insoniy burchi deb biladilar.

Mazkur savolga javob berish chog'ida o'qituvchilarning aksariyati oila shajarasi xususida ham so'z yuritganlar.

O'qituvchilarning 19nafarida savolnoma tarkibidan o'rin olgan to'qqizinchi savol yuzasidan javob qaytarar ekanlar, innovatsion usullarning ta'lim jarayonida qo'lanilishi bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishi asosida vtanga sadoqat va fidoiylik, vatnparlik qadriyatlarini shakllantirishda ulkan ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar

Bolalarida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan hamda tadqiqot muammosi mohiyatini yorituvchi jarayonning faol sub'ektlaridan biri bo'lgan o'qituvchi pedagog xodimlarning o'rni va ahamiyati kattadir. Ularning shaxsiy namunasi, shuningdek, ular tomonidan mashg'ulotlar chog'ida

o'zlashtirilayotgan mavzular negizidakichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'yyp, iftixor va o'zlikni anglash kabi qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar bilan faol muloqot o'rnatilgan pedaqoglar ularning shaxsiy fazilatlarini xususida ham yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'la oladilar. SHu bois, tadqiqot jarayonida olib boriladigan tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yishda ularning yordamlaridan foydalanish samarali natijalar berishini nazarda tutgan holda respondent sifatida tanlanishlariga erishdik. Asoslovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida respondent-boshlan-ich sinf o'qituvchilari e'tiboriga vatanparvarlik qadriyatlarining mavjud darajasi haqida axborot bera olish imkoniga ega bo'lgan anketa so'rovnomasini havola etdik.

Respondentlar tomonidan ushbu savol bo'yicha olingan javoblar mazmuni tahlil etilganda, ularning ko'rsatgichlardagi ifodasi quyidagicha bo'ldi:

- «milliy g'yyp», «vatanparvarlik» hamda «milliy o'zlikni anglash» kabi tushunchalarini to'g'ri sharhlay olgan respondentlar – 29 %;

- mazkur tushunchalar mohiyatini to'g'ri sharhlashga uringan, biroq yetarli darajada ochib bera olmagan respondentlar - 49 %;

- mazkur tushunchalar mohiyatini noto'g'ri sharhlagan respondentlar - 22 %.

Ikkinchi savol yuzasidan munosabat bildirar ekan, respondent-o'qituvchilarning katta qismi o'zlarining milliy g'yyp, vatanparvarlik qadriyatlariga ega ekanliklarini bayon etganlari holda, amaliy jihatdan bolalarga bu borada ibrat ko'rsata olish imkoniyatini har doim ham qo'lga kiritma olmasliklari va bundan afsuslanishlarini ta'kidlab o'tganlar. Ko'rsatgichlar asosida respondentlarning javoblari quyidagi mazmunga ega bo'ldi:

- milliy g'yyp, vatanparvarlik qadriyatlariga ega hamda bu borada bolalarga ibrat ko'rsata oladigan respondent-o'qituvchilar-26 %;

- milliy g'yyp, vatanparvarlik hamda o'zlikni anglash qadriyatlariga ega, ammo bu borada bolalarga ibrat ko'rsatishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keluvchi respondent-o'qituvchilar - 43 %;

- o'zida milliy g'yyp, vatanparvarlik hamda o'zlikni anglash qadriyatlarini yetarli darajada shakllanmagan, deb hisoblovchi respondent-o'qituvchilar - 31 %.

Bolalarda milliy g'yyp, iftixor hamda o'zlikni anglash qadriyatlarining shakllanishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi barcha respondent-o'qituvchilar tomonidan birdek (100 foiz ko'rsatgich miqdorida) e'tirof etiladi.

o'qituvchilarning javoblarida esa o'zlarini faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarida turli yo'nalish va mavzularda tashkil etiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qaysidir darajada kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'yyp, iftixor hamda o'zlikni anglash

qadriyatlarining shakllantirishga xizmat qilishini aytib o'tadilar. Respondent-o'qituvchilarning 23 nafar salbiy tarzda 63 nafar respondentning ijobiy javobiga qarshi javob berdilar. Salbiy mazmundagi javoblarda ta'kidlanishicha, ular faoliyat olib borayotgan ta'lim muassalarida kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, vatnaparlik qadriyatlarini shakllantirishga nisbatan yetarli darajada e'tibor berilmaydi. Tashkil etilayotgan tadbirlarning aksariyati ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib uyushtiriladi hamda ularda bolalarning faol ishtirok etishlariga u qadar e'tibor berilmaydi. Respondentlarning mazkur savol bo'yicha qaytargan javoblari mazmun jihatidan ko'rsatgichlar yordamida o'z ifodasini topganda quyidagi holat yuzaga keldi:

- men faoliyat olib borayotgan maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, iftixor va o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berib boriladi va bu borada muayyan yutuqlarga erishilgan - 11 %;

- men faoliyat olib borayotgan maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, iftixor va o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishga ahamiyat beriladi va biroq bu borada yutuqlarga erishilganicha yo'q - 27 %;

- men faoliyat olib borayotgan maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, iftixor va o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirishga yetarli darajada ahamiyat berilmaydi - 62 %.

Respondent-o'qituvchilar tomonidan uqtirilishicha, kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish quyidagi sharoit va omillar asosida amalga oshiriladi:

- tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil etish asosida 28 %;
- milliy-madaniy meros namunalari o'rganish asosida 25 %
- jamiyatda ro'y berayotgan yangi ijtimoiy voqea-hodisalarning mohiyatini to'laqonli ravishda anglash asosida 17 %;
- ilm-fan, texnika, texnologiya, madaniyat, xususan, sport sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishish asosida 15%.

Ettinchi savolga nisbatan munosabat bildirishda respondent-o'qituvchilar quyidagi tahlilda javob berganlar:

- mashg'ulotlar jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik hamda milliy o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirib borishga harakat qilaman va buning uddasidan chiqyapman - 26 %;

- mashg'ulotlar jarayonida o'zlikni anglash qadriyatlarining shakllantirib borishga harakat qilaman, biroq bu borada hali sezilarli yutuqni qo'lga kiritganim yo'q - 31 %;

- mashg'ulotlar jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarda milliy g'ypyp, iftixor hamda o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirib borishga u qadar jiddiy e'tibor bermayman, buning boisi bu boradagi harakatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi shakl va metodlardan xabardor emasman - 43 %.

Savolnomaning tarkibidan joy olgan sakkizinchi savolga respondent-o'qituvchilarning javoblari quyidagicha bo'ldi:

- suhbat, ekskursiya, ko'rgazmali qurollar va hokazolar) kabi shakllar va suhbat, og'zaki hikoya qilish, namuna ko'rsatish kabi metodlardan foydalanaman - 52 %;

- bu o'rinda uchrashuv, ekskursiya, amaliy mashg'ulotlar kabi shakllar hamda noan'anaviy metodlardan foydalanaman - 48%.

«Bolalarda vatnaparlik qadryatlari ,o'zlikni anglash qadriyatlarini shakllantirish bola shaxsda bevosita ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. SHu bois, mashg'ulotlar jarayonida ushbu omillardan samarali foydalanishga harakat qilaman» tarzda fikrni ilgari surish asosida savolnomaning tarkibiga kirgan to'qqizinchi savolga javob bergan.

So'nggi o'ninchi savol yuzasidan javob qaytarishda respondent-o'qituvchilar quyidagi takliflarni ilgari suradilar:

- bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda hamda xalq an'analari va ularning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilishiga erishish - 76 %;

- ta'sirchan ekskursiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq – 16 %;

- ma'naviy-ma'rifiy mavzularda uchrashuv va suhbatlarni tashkil etish - 8 %.

Asoslovchi tajriba yakunida o'qituvchilarning e'tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari darajasi quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi:

O'qituvchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanganligining o'rtacha koeffitsenti

T.r	O'qituvchilar	Tajriba avvalida			Koeffitsent
		Yuqori	O'rta	Past	

	n=40	4	19	27	0,5
--	------	---	----	----	-----

XULOSA

Vatanparvarlik ona-yurtga e'tiqod va xatti-harakatning irodaviy muvofiqlashuvidan iborat bog'lanish va intilish bola shaxsi ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk bo'lgan xoldagina shakllanadi

Vatanparvarlik qadriyatlari, vatanparvarlikka bo'lgan ehtiyoj, vatanparvarlik ongi va vatanparvarlikka oid yaratuvchilik, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishining muxim omillaridan biri sanaladi.

Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda respublikada faoliyat olib borayotgan ijtimoiy tashkilotlar, jumladan, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi, «Oltin meros», «Bobur», «Ahmad Farg'oniy», «Qatog'on qurbonlari» kabi jamg'armalar, shuningdek, Respublika «Kamalak» ijtimoiy harakati va ularning joylardagi bo'limlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muqaddas qadamjolar, me'moriy obidalar hamda muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar vositasida talabalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish pedagogik jihatdan samarali sanaladi.

SHu o'rinda, kichik maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda zo'rlash, majburlash usullaridan qochish lozimligini qayta-qayta uqtirish lozim

Jahon adabiyotida munosib o'rin egallagan frantsuz yozuvchisi Anatol' Frans: "Tazyiq ostida berilgan bilim, aqlni bug'adi", -degan edi.

Bolalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda o'qituvchi shaxsi va uning o'qituvchilik layoqati tarbiyalanuvchi tomonidan his qilinishi katta ahamiyat kasb etadi..

AMALIY TAVSIYALAR:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish pedagogik faoliyatni quyidagi tahlitda tashkil etish kutilgan maqsadga olib keladi

1. O'quvchilarni millatning shonli o'tmishi, tarixi bilan yaqindan tanishtirish imkoniyatiga ega O'quv fanlarini o'qitish jarayonida bilimlarni yuqori darajada ruhiy-hissiy ifoda yordamida uzatilishini ta'minlash asosan, ta'lim jarayonida shakllantiriladi. SHuning uchun o'quvchilarning chuqur va puxta bilim olishlariga erishish, ularga Vatan va millat oldidagi burchlaridan biri – a'lo o'qish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish ekanligini singdirish, vatan va millat ulardan yaxshi o'qishni, bilimli va fidoiy, milliy taraqqiyot uchun o'z hissasini qo'sha oladigan inson bo'lishni talab etishini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.

2. O'quvchilarni o'zbek millatining shonli tarixi, o'tmishi bilan tanishtirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan o'zaro uyg'unlashuviga erishish.

3. Millat o'tmishi, tarixi bilan tanishtiruvchi tadbirlarning rejasi, bolalarning ichki ehtiyojlarini, qiziqishlarini inobatga olgan holda ko'tarinki ruhda, turli shakl va uslublarda qiziqarli tashkil etilishini ta'minlash.

4 Bolalar o'rtasida vatanparvarlikni shakllantirishda ta'lim-tarbiya mazmuni muhim omil bo'lganligi uchun har bir o'qitiladigan mavzularni Vatan mavzusi bilan bog'lash va bu sohada yirik ilmiy meros qodirgan vatandoshlarimizni eslatish.

5 Yozuvchilar uyushmasi kichik maktab yoshidagi bolalar yosh xususiyatlariga mos vatanparvarlik ruhida badiiy asarlarini yuzaga kelishida ma'suliyatlarini kuchaytirishlari zarur.

6“O'zbekfilm” studiyasi badiiy saviyasi yuqori vatanparvarlik tuyg'usidagi badiiy fil'mlarni yaratishda izlanishlar olib borishlari hayotiy zaruriyatga aylandi.

7 Umumiy o'rta maktablarning “Vatanparvar” tashkiloti bilan hamkorligini kuchaytirish lozim.

8Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, ulamolarimiz va'zlarida vatanparvarlik mavzusiga ko'proq e'tibor qaratishlari vatanparvarlikni shakllantirishda muhim vositalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T. O'zbekiston, 1992. - 43 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekistan taraqqiyotining poydevori. - T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. -T.: O'zbekiston, 1994.
4. Karimov I.A. Vatan ozodligi - oliy saodat. - T.: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: O'zbekiston, 2001. – 440 b.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – 31-60-b.
9. Abdurahobov U. SHaxs (Komil inson haqida). – T.: Vatan, 1996. – 20 b.
10. B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir". – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1999. – 184 b.
- 11."Alpomish" dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti //Xalqaro konf.mat. – Termiz: Fan, 1999.
- 12 "Alpomish" dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti //Xalqaro konf.mat. – Termiz: Fan, 1999.
- 14.ZNishonovaPedagogik psixologiya Toshkent 2011 yil
15. S.S.G'ulomov. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 288 b.
- 15 E.Yusupov o'zining «Inson kamolotining ma'naviy asoslari - T.: O'qituvchi, 2001. – 232 b.
- 16 Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at //Maqolalar to'pl. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 88 b.
- 17 Amir Temur jahon tarixida /Mas'ul muhar. H.Karamatov. Mualliflar jamoasi. S.Saidqosimov (rahbar). – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 2001. – 304 b.
- 18 Anoxina V.M., Pavlova M.B. Vospitanie grahdanina v sovremennoy shkole. – Omsk: Nauka, 2003. – 89 s.

- 19 Baxranov SH. SHaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 1995. – 136 b.
- 20 Baubekova G.D. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari tarixidan: Ped.fanl.dokt. ... diss. – T.: 2000. – 236 b.
- 21 Bobomirzaev X. Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi. - T.: O'qituvchi, 1991. - 173 b.
- 22 Boboxonova L.T., Bekturganova S. O'zbekiston va o'zbeklar. – T.: O'zbekiston, 1996. – 148 b.
- 23 Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.2. /Nashrga tayyor. va mas'ul muhar. M.M.Xayrullaev. - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1996. - 120 b.
- 24 Jalolov A. O'zbekiston. Mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1994. - 95 b.
- 25 Jandil'din N. Priroda natsional'noy psixologii. – Alma-Ata: 1971. – 354 s.
- 26 Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.dokt. ... diss. -T.: 1998.
- 27 Inomova M.O. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 152 b.
- 28 Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 76 b.
- 29 Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. - T.: Fan, 1994. - 134 b.
- 30 Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2005. – 145 b.
- 31 Musurmonova O. Ma'naviyat qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996.
- 32 Musurmonova O. Oila ma'naviyati va milliy g'urur.. – T.: Fan, 1996. 5-b.
- 33 Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 1995. – 208 b.
- 34 Psixologiya // EG'ozievning umum.tah.ostida. – T.: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
- 35 Psixologiya. Izoxli lug'at. – Tonkent .:SHarq, 2006 y- 56b.
- 36 SHarifxo'jaev M. Iftixor. - T.: O'zbekiston, 1993.
- 37 SHarofiddinov O. Ma'naviy kamolot yo'llarida. - T.: Ma'naviyat, 2001. - 224 b.
- 38 O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya hakida xalq pedagogikasi - inson kamolatining asosi. 1-kitob. - T.: O'zPFITI, 1992.
- 39 G'oziev E. Psixologiya: Yosh davrlari psixologiyasi (Ped. ins-tlari va uni-tlari uchun o'quv qo'll. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.

VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHGA OID ASOSIY TUSHUNCHALARNING LUG'AVIY MA'NOSI

An'ana – ajdodlarning tarixan to'plagan ma'naviy qadriyatlarini avlodlarga uzatish vositasi. An'ana o'z holicha mavhum tushuncha bo'lib, aslida, an'anaga aylangan rasm-rusumlar, urf-odatlar, marosimlar, udumlar, ko'nikmalar, malakalar, turmush tarzi va boshqalar haqida fikr yuritilganda, u aniq ma'no kasb etadi.

Millatlar, xalqlar, elatlarning tarixiy xotirasiga zo'r hurmat bilan qarash, avvalo, an'anaga aylangan marosimlarda o'z ifodasini topadi. An'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an'analarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat, marosim va boshqalar an'ana sifatida namoyon bo'ladi. ... An'analar yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o'z an'analari bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib, mazmunan boyib boradi, ba'zilar yo'qoladi, yangilari vujudga keladi. SHuningdek, bir zamonning an'analari ikkinchisiga mos kelmasligi mumkin. Davr talabiga javob bermaydigan an'analar unutiladi, o'tmishga aylanadi. An'ana inson faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi.

An'anani asosan 2 turga bo'lish mumkin: a) an'anaga aylangan xayrli (bunyodkor) marosimlar, ishlar, faoliyat yo'nalishlari. Bunday an'analar ijtimoiy taraqqiyot, milliy ravnaq va inson kamoloti uchun bemiyl ahamiyatga molikdir; b) an'anaga aylanib qolgan zararli (vayronkor) marosimlar, ishlar, faoliyat yo'nalishlari. Bular har doim inson ongi va ruhini qashshoqlashtirib, uni ma'naviy tuban bir mavjudot bo'lib qolishiga asos bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga zavol bo'ladi.

Tarixiy jarayonlar, ijtimoiy taraqqiyotning oldinga borishiga, insonning barkamol, sog'lom ravnaq topishiga xizmat qiladigan hamda muayyan xalq ommasining tub manfaatlariga muvofiq keladigan marosimlar, rasm-rusum, urf-odat, turmush va tafakkur tarzi xayrli an'ana vositasi ta'sirida rivojlanadi va qadriyatga aylanadi.

Vatanparvarlik – Vatan oldidagi mas'uliyat va burchni anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tushunchasi shuncha baland bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat tarqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Haqiqiy vatanparvarlik - millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish hamda kurashishdir.

Komil inson – ijtimoiy taraqqiyotning asosiy g'oyalardan biridir. Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat tsivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi, ya'ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat tsivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni shaxsning

barkamolligi orqali jamiyatni baxt-saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidir. SHu ma'noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning "O'zing-o'zingni bil" degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Komil inson g'oyasini milliy istiqlol g'oyasidan ajratib bo'lmaydi.

Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlarda xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.

Har bir davr o'ziga xos bo'lgan madaniy merosni yaratadi va kelajak avlodga qoldiradi. Masalan, qadimgi yunon madaniyatini oladigan bo'lsak, o'sha davrning fan, adabiyot va san'at sohasidagi nodir namunalari insoniyatni hozirgacha hayratga solib kelmoqda. Yaqin va O'rta SHarq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda Uyg'onish davri boshlandi, dunyoviy va ilohiy ilmlar rivoj topdi. Fanning turli sohalarida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jahonga dong'i ketgan allomalar - Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Iso at-Termiziy, Imom Ismoil al-Buxoriy, az-Zamahshariy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Motrudiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzodlar o'zlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va diniy qarashlari, badiiy ijodlari bilan tarixda chuqur iz qoldirdilar. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududidan moddiy boylik bo'lmish osori-atiqalar, yodgorliklar madaniy obidalar ko'plab topilgan. Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Xiva, SHahrisabz shaharlarida saqlanayotgan yodgorliklar, masjid-u-madrasalar, maqbaralar jahonning ko'p mamlakatlaridan kelgan sayohatchilarni lol qoldirmoqda. Har bir davrning ma'naviy va moddiy madaniyati o'sha tuzumdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvolini belgilaydi. Madaniyat sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar keyingi davrda yangi jamiyat tomonidan o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va yangi mazmun bilan to'ldiriladi, sharoitga to'g'ri kelmaydiganlari inkor etiladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, urf-odat, marosim va an'analar, milliy bayramlar qayta tiklandi, o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, islom dini madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylandi, tariximiz qayta o'rganib chiqilmoqda. O'tmishda milliy madaniyatimiz ravnaqiga katta hissa qo'shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, abadiylashtirilmoqda, yubileylar o'tkazilmoqda. Xullas, milliy madaniy merosimizni xalq mulkiga aylantirish borasida ko'p xayrli ishlar qilinmoqda. Bularning hammasi mustaqillik sharofati tufaylidir.

Manqurtlik – o'zligini anglashdan mahrum bo'lgan inson; jamiyatning ijtimoiy-etnik xususiyati; kundalik turmushda o'z tarixini bilmaydigan odamlarga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha. Odatda, bu so'z kishilar tomonidan ota-ona, qarindoshlariga bemehr, "onasini ham sog'inmaydigan" (A.Oripov), o'z millatiga bemehr odamlarga nisbatan qo'llaniladi. "Manqurt" tushunchasi haddan tashqari g'ayrinsoniylik darajasini ko'rsatishga ham xizmat qiladi. Hozirgi davrimizdagi dolzarb muammolardan biri – o'zligini yaxshi anglaydigan ma'naviy barkamol avlodni, milliy manqurtlikdan xoli bo'lgan zamonaviy insonlarni tarbiyalashdir

Ma'naviyat – insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi. Inson ma'naviyatini o'zini shaxs sifatida anglagandan boshlab umrining oxirigacha shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Insonning o'z ma'naviyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi. SHu ma'noda ma'naviyat insonning ongliligini, qobiliyatini va intilishlarini ham o'z ichiga oladi. Ma'naviyat insonning botiniy dunyosini o'zida ifoda etuvchi tushuncha. Inson botiniy dunyosini, gavhar to'la tubsiz dengizga qiyoslash mumkin.

Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zi-o'zining anglashi, did-farosati, adolatni razillikdan, yaxshilikni yomonlikdan, go'zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, ularni amalga oshirish yo'lida ongli faoliyat ko'rsatish va intilishi. Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o'zligini qaysi darajada anglashida, o'zining oila va jamiyatdagi o'rnini tushunishida Vatan va millatga munosabatida namoyon bo'ladi.

Millat - til, ma'naviyat, milliy o'zlikning anglash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi. Millat ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davrida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi. U insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotning mahsulidir. Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo ular millat abadiyligini ta'minlashning oxirgi imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun zaruriy shart hisoblanadi. Millatning abadiyligi, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili uning ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatidir.

Millatchilik – mahdudlik va mumtozlikni targ'ib va tashviq qilishga asoslangan, o'z millatiga chuqur ishonch va o'zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo'g'rilgan nazariya va amaliyot. ... Millatchilik ortida mohiyat e'tibori bilan o'zga xalqlar va madaniyatlarni kamsitish, ularga mensimaslik bilan munosabatda bo'lish tuyg'ulari yotadi. Millatchilik, bir tomondan, boshqa millatlar bilan turli sohalardagi ayirboshlash jarayonidan mahrum qilib, millatning ma'naviy qashshoqlashuviga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zaro kelishmovchiliklar uchun zamin yaratadi. Millatchilik tuyg'ulari butun millatni qamrab olgan va strukturalari tomonidan bunday kayfiyatlar qo'llab-quvvatlangan paytda esa u millatlararo munosabatlarning tarang holatda saqlanishiga, o'zaro ishonchsizlik tuyg'ularining ildiz otishiga, mavjud muammolarni hal etishning cho'zilib ketishiga va doimiy beqarorlik holatining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi

Milliy iftixor – insonning ong va faoliyatida, o'zi mansub bo'lgan millatning madaniyati, tarixi, dini, tili, qadriyatlari qanchalik o'rmashib olganligini ifodalaydi. Milliy iftixor milliy g'ururning yuqori bosqichi, cho'qqisidir. Xuddi shuning uchun ham milliy iftixor millatni yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini his qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, iftixor ruhiy-ma'naviy fazilatdir. Xuddi shu fazilat tufayli kishilar o'zlarining tarixiy birliklarini – urug'-aymoqchilik, qon-qardoshlik, yaqinliklarini ifodalaydi

Milliy kalondimog'lik – milliy takabburlik, milliy manmanlik, milliy kekkayish kabi g'ayriinsoniylik. Qaerda milliy kalondimog'lik bo'lsa, o'sha yerda unga qarama-qarshi o'laroq millatchilik rivojlanadi. Milliy kalondimog'lik ko'p millatli mamlakatda millatlarni bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki ular orasiga adovat urug'ini sochadi, turli nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Milliy kalondimog'likning yuqori bosqichi – millatchilik. Agar milliy kalondimog'lik bartaraf etilmasa, millatchilikni vujudga keltiradi. Milliy kalondimog'lik milliy alamzadalikni keltirib chiqarishini unutmaslik kerak

Milliylik – o'z millatini ulug'lash va uning manfaatini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z tili, adabiyoti, san'ati va madaniyati, dini, tarixi va urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari,

musaffo osmoni bilan faxrlanish tuyg'usi. Milliylik bir millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini ta'minlovchi buyuk qudratdir .

Milliy ong – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta'minlaydi. Milliy ong millatning o'zi bilan birga shakllanib boradi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o'ziga taalluqli bo'lgan manfaatlari va maqsadlari shakllanishi milliy ongni vujudga keltiradi. SHuning uchun ham milliy ong millat bilan parallel ravishda uzoq tarixiy davrda, uning turmush tarzi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va keng ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ta'sirida rivojlanadi. SHunday qilib, milliy ong deb, millatning tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar va maqsadlarni ifodalovchi, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadigan g'oyalar, fikrlar tizimiga aytiladi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib va rivojlanib boradi. Xuddi shu jarayonda millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi. O'sha xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar, o'z navbatida, milliy manfaat va maqsadlarni shakllanishida yetakchi omil vazifasini o'taydi. SHuning uchun ham millatning barcha tarixiy davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti milliy ongda o'z ifodasini topadi. Milliy ong rivojining ma'naviy asoslarini milliy til, madaniy meros, tarixiy xotira, urf-odat, an'analar, qadriyatlar, milliy tarbiya, ta'lim tizimi kabilar tashkil qiladi. Mana shu manbadan millat ma'naviy ozuqa oladi, ular orqali o'zini anglaydi .

Milliy o'z-o'zini anglash – har bir millat (elat)ning o'z-o'zini real sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishiga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi. Milliy o'z-o'zini anglash milliy shakllanish jarayonining yuqori bosqichi. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi zaminida davlat atrofiga birlashishi mumkin. Milliy o'z-o'zini anglash murakkab jarayon. Bu jarayon millat vakillarining umummilliy manfaatlarini ustuvor qo'ya bilish malakasi bilan bevosita bog'liqdir. Milliy o'z-o'zini anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har bir millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomonga rivojlanib borishining muhim mezoni. O'z navbatida, milliy ongning o'sib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi. Milliy o'z-o'zini anglash real moddiy kuch sifatida, millat sha'ni, qadr-qimmat, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini poymol etilganda millat vakillari, qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, yagona umummilliy kuch bo'lib birlashadilar va o'zligini himoya qiladilar. SHunday qilib, milliy o'z-o'zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi omil hisoblanadi.

Milliy g'urur – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglash asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. Sog'lom milliy g'urur o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g'ururni millatparastlikdan farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafi va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan ajdodlar xotirasi

oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda Vatanimiz mustaqilligidan faxrlanish, mamlakatimizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish, jahon hamjamiyati yutuqlari, universal texnologiyalardan foydalanish milliy g'ururni oshiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, yurtdoshlarimizning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini ko'p jihatdan belgilaydi, ularni o'zlarida sog'lom milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi.

Tarixiy xotira – ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishi. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yeta olmaydi. O'z kelajagini tasavvur qila olmaydi. SHu sababdan ham I.Karimov ta'kidlagani kabi "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Tarixiy xotira madaniy merosning shakllanishi va rivojlanishi uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Xuddi shuning uchun ham hamma zamonlarda xalqning, millatning tarixiy xotirasini mustahkamlash yurtning buyuk allomalari, davlat arboblari diqqat e'tiborida bo'lgan. Abu Nasr Forobiyning tushuntirishicha, tarixiy xotira har bir millat, har bir xalq yaratgan ma'naviy boyliklar, umuminsoniy madaniy meros bilan birlashganda, umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shilgandagina sodir bo'ladi. Insoniyat avlodlarining o'zaro aloqadorligi natijasida vujudga kelgan qadriyatlar, ya'ni ajdodlar va avlodlarning ruhiy-ma'naviy merosi umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shiladi va asta-sekin tarixiy xotiraga aylanib boradi. Boshqacha aytganimizda, tarixiy xotira insoniyatning barcha ajdodlari ruhini, ya'ni ularning fikrlari, g'oyalari va e'tiqodlari, rzulari va istaklarini o'zida mujassamlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham insonning ruhiy-ma'naviy yetukligi uning tarixiy xotirasi bilan bog'liq. Tarix inson uchun buyuk xotira vazifasini bajaradi **Urf-odat** – an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil. Masalan, o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, ertalab turib uy-hovlini supirib-sidirib, tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiynalaganlar holidan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va b.sh. Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi va millat, elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbeklarda qudachilik juda katta e'tiborni talab etadi. "Kuyovni payg'ambarlar siylagan" deyiladi va shunga yarasha kuyovga hurmat-ehtirom bildiriladi. O'tmishda ota o'z qizi kelin bo'lib tushgan mahalladan otdan tushib piyoda o'tgan.

Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini-o'zi millatidan uzoqlashtirib, uzib qo'yadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismlarga, ko'p millatli davlatda o'z millatining urf-odatlariga rioya qilish boshqa millatlar bilan bo'lgan do'stona munosabatlariga putur yetkazmasligi kerak .

Ilova №2

Mustaqillik yillari ishga tushirilgan va millatning faxriga aylangan sanoat korxonalari

№	Ishlab chiqarish ob'ektlari	Ishlab chiqarish yo'nalishi
1.	UzDEUavto korxonasi (Andijon viloyati)	Avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
2.	«SamKochavto» (Samarqand viloyati)	Mikro avtobuslarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
3.	«Zarafshon-Nbyumont» qo'shma korxonasi (Navoiy viloyati)	Oltin va kumushni qazib olish, ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan
4.	«Sarbontekstil» (Toshkent hamda Sirdaryo viloyatlari)	Ip-gazlama mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
5.	«Kosonsoytekmen» qo'shma korxonasi (Namangan viloyati)	CHarmni qayta ishlash va charm mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
6.	Nestle Uzbekistan MChJ qo'shma korxonasi (Namangan viloyati)	Sutni qayta ishlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
7.	«Tip-top» qo'shma korxonasi (Namangan viloyati)	Salqin ichimliklarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
2.	«Kibo» qo'shma korxonasi (Toshkent viloyati)	Poyafzal mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan

“KAMALAK BOLALAR TASHKILOTINING FAOLIYATI YO’NALISHLARI

“Oltin meros” yo’nalishida bolalar ajdodlarimiz merosi, tarixiy va me’moriy obidalar bilan yaqindan tanishadilar.

“Ekosan” yo’nalishida bolalar O’zbekiston tabiatini va alohida muhofaza qilinuvchi milliy bog’lar, qo’riqxonalar, tabiat boyliklari, sirlari va yodgorliklarini o’rganadilar.

“Iqtisodiyot” yo’nalishida bolalarni bozor munosabatlari, uning tuzilishi, o’zaro iqtisodiy munosabatlar haqidagi tushunchalar bilan tanishtirilib, ularga tadbirkorlik, ishbilarmonlik, biznes haqida tushunchalarni o’rganadilar.

“Sog’lom avlod” yo’nalishida bolalar jamoa va guruhlarida o’rtasida tennis, futbol, milliy kurash, voleybol, qo’l to’pi kabi sport turlari bo’yicha musobaqalar o’tkaziladi, mashhur sportchilar haqida suhbatlar tashkil etiladi, uchrashuvlar uyushtiriladi. “Umid nihollari” sport o’yinlari targ’ibot-tashviqot etiladi.

“Nafosat” yo’nalishida bolalar o’zbek va jahon bolalar adabiyoti, sanoati, musiqa, tasviriy sanoat tarixi, teatr va kino ijodkorlari hayoti va ijod namunalari bilan tanishadilar.

“Umid” yo’nalishida kashfiyotchilik, loyihalashtirish ishlarini olib borayotgan isteododli bolalar qo’llab-quvvatlanadi va ularning olimlar, xalq ustalari, ijodkor va san’atkorlar bilan uchrashuvlari yo’lga qo’yiladi.

“Kamalak bolalar tashkilotining har bir faoliyat yo’nalishi o’z mazmuni, shakli va uslubiga egadir. Bunda yetakchilarning ijodiy mahoratiga tayangan holda bolalarning qiziqish va intilishlari asosida guruhlarini shakllantirish lozim.